



MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

VATANPARVAR

QADAMING MUBORAK, NAVRO'ZIM!



Qadim ajdodlardan qolgan merosim,
Qutlug' qadam ila yurtida e'zozim,
Ming yillar qo'llardan tushmagan sozim,
Qadaming muborak, Onajon Navro'z!

Sahroga jon bergan bahri muhit sen,
Qaqragan bag'irlar kutgan umid sen,
Ishqsiz yuraklarga tutashgan o't sen,
Qadaming muborak, Onajon Navro'z!

Zaminga jon bergan jonbaxsh Onasan,
Yalpiz-u chuchmoma tergan bolasan,
Qirlarni yashnatgan gul-u lolasan,
Qadaming muborak, Onajon Navro'z!

Sumalak qaynagan sirli tun o'zing,
Muhabbatdan bunyod yangi kun o'zing,
Mehr-u muruvvatda haq to'kin o'zing,
Qadaming muborak, Onajon Navro'z!

Kelinchak sehri bor bo'yi bastingda,
Nuroniy donishlik yashar aslingda,
Xalqimga ulug' rizq kelar dastingda,
Qadaming muborak, Onajon Navro'z!

Zulfiya YUNUSOVA



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
4-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN
WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 19-MART
№12 (3178)



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING O‘ZBEKISTONDAGI ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZINING RASMIY OCHILISH MAROSIMIDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar! Muhtaram mehmonlar!

Avvalo, sizlarni, joylardagi studiyalar orqali bugungi iftorlik marosimida ishtirok etayotgan hurmatli nuroniylar, olim-u ulamolar, keng jamoatchilik vakillarini, butun xalqimizni muborak Ramazon oyi bilan yana bir bor chin qalbimdan tabriklayman.

Shu ulug‘ ayyom kunlariga barchamizni tinch-omon, sog‘-salomat yetkazgani uchun Alloh taologa behad shukurlar bo‘lsin!

Mehr-oqibat va ezgulik ramzi bo‘lmish Ramazon oyida hammamiz birgalikda ko‘plab savobli ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

Davlat va nodavlat tashkilotlar, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Mahallalar uyushmasi, Musulmonlar idorasining “Vaqf” jamg‘armasi, hududlardagi “Inson” markazlari, saxovatli tadbirkorlarimiz tomonidan keksa va nogironlar, kam ta‘minlangan oilalarga, ko‘makka muhtoj insonlarga moddiy va ma‘naviy yordam ko‘rsatilmogda.

Tibbiyot bo‘linmalari olis va chekka hududlarimizga borib, ayollar, bolalar va nuroniylarimizni ko‘rikdan o‘tkazmogda, og‘ir bemorlar operatsiya yo‘li bilan davolanmogda.

Mana shunday fayz-u barakali kunlarda mamlakatimiz miqyosida iftorlik tadbirlarini o‘tkazish ham yaxshi an‘anamizga aylandi.

Albatta, bularning barchasi jamiyatimizda inson qadrini ulug‘lash, tinchlik va umummilliy birlik muhitini mustahkamlashga xizmat qilmogda. Bugungi iftorlik marosimida yurtimizdagi turli millat va diniy konfessiyalar namoyandalari ishtirok etayotgani ham shundan dalolat beradi.

Hozirgi g‘oyat tahlakali zamonda tinchlik naqadar ulug‘ va bebaho ne‘mat ekanini, 38 milliondan ziyod aholimizning yagona xalq, ahil bir oila bo‘lib yashayotgani eng katta boyligimiz ekanini yanada chuqur his etmoqdamiz.

Davramizda O‘zbekistondagi diplomatik korpus vakillari ham qatnashayotganini biz dinimizning gumanistik va bag‘rikenglik qadriyatlariga, davlatimizning ochiqlik siyosatiga hurmat-e‘tibor ifodasi sifatida qabul qilamiz va ularga samimiy tilaklarimizni bildiramiz.

Qadrli vatandoshlar!

Bugungi Ro‘zayi Ramazon kunida barchamiz yana bir tom ma‘noda tarixiy voqeada ishtirok etmoqdamiz. Xalqimizning aql-zakovati, fidokorona mehnati bilan bunyod etilgan ulug‘vor va noyob majmua – O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining rasmiy ochilish marosimini o‘tkazmoqdamiz.

Ne-ne ajdodlarimizning orzu-niyatlari, armonlari ro‘yobga chiqqan mana shunday unutilmas kun bilan, chinakam ilm-ma‘rifat bayrami bilan hammangizni chin qalbimdan tabriklayman.

Mamlakatimizning uch ming yillik shonli tarixi va boy madaniyatining, Yangi O‘zbekiston imkoniyatlarining yorqin ko‘zgusi bo‘lgan ushbu betakror va buyuk majmua barchamizga, butun xalqimizga muborak bo‘lsin!

Muhtaram do‘stlar!

Biz yurtimizda rivojlangan davlat, erkin jamiyat poydevorini bunyod etish uchun, eng avvalo, ilm va ilm, ta‘lim va yana bir bor ta‘lim, degan oliy maqsadni hayotimizga joriy etmoqdamiz. Zero muqaddas dinimiz ham bizni doimo ilm-u ma‘rifatga da‘vat etadi. Shu bois Islom sivilizatsiyasi markazining Ulug‘bek darvozasi peshtoqiga Qur‘oni karimning “Iqra!” – ya‘ni “O‘qi!” degan muborak oyatini muhrlab qo‘ydik. Bu ilohiy so‘zlar zamirida islom dinining asl ma‘no-mazmuni mujassam, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Xabaringiz bor, bundan to‘qqiz yil oldin mazkur majmuani barpo etish haqida maxsus qaror qabul qilib, amaliy ishlarni boshladik. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida e‘lon qilingan bu ezgu tashabbusimiz jahon jamoatchiligi, ayniqsa islom hamjamiyati tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Biz bu har jihatdan ulkan loyihani amalga oshirish uchun shoshilmadik, yetti emas, yetmish marta o‘ylab, uzoqni ko‘zlab, tinimsiz izlandik. Nihoyat, qadimdan Toshkent azimning ma‘naviy markazi bo‘lib kelgan Hazrati Imom majmuasi yonida, ko‘rib turganingizdek, betakror arxitektura, chinakam milliy ruh va milliy qiyofaga ega bo‘lgan sharqona shaharcha barpo etildi.

Ushbu markazda O‘zbekistonning qadimiy tarixi va sivilizatsiyasi durdonalarini bir paytning o‘zida yagona ma‘rifiy makonda ko‘rish, shu asosda o‘zbek xalqining intellektual va madaniy salohiyatini yaqqol anglash mumkin.

Bu maskan bilan tanishgan har bir odam, xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz islom dinining gumanistik mohiyatini anglab yetadi, o‘zining qanday ulug‘ meros egasi ekanini his etib, qalbi g‘urur va iftixorga to‘ladi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Azaldan turli sivilizatsiya va madaniyatlar tutashgan mintaqada joylashgan yurtimiz zamini Buyuk Ipak yo‘li rivojida muhim o‘rin egallagan. Ko‘hna diyorimiz islomgacha bo‘lgan davrda ham ilm-fan, ma‘rifat markazi sifatida shuhrat qozongan. Qadimiy Turkiston o‘lkasiga islom dini kirib kelgach, bu yerda hadis va kalom ilmi, musulmon huquqi, tasavvuf bo‘yicha yirik maktablar shakllandi, o‘nlab buyuk allomalar yetishib chiqdi.

Aniq va tabiiy fanlar sohasida o‘z kashfiyotlari bilan jahonni hayratga solgan ulug‘ olimlarimiz asarlari ham islomiy muhit bag‘rida vujudga kelgan. Dunyoga mashhur bu kitoblar “Bismillohir rahmonir rahim” degan ilohiy so‘zlar bilan boshlangani ularning muqaddas dinimizdan ilhom va kuch olib yaratilganini bildiradi. Nafaqat bizning yurtimiz, balki bepoyon mintaqamizning ma‘naviy mulki bo‘lgan ana shunday bebaho boylikni chuqur o‘rganish va jahon miqyosida targ‘ib etish maqsadida uni Islom sivilizatsiyasi degan nom ostida birlashtirishga qaror qildik.

Albatta, hozirgi murakkab va og‘ir sharoitda bunday yirik majmuani eng yuksak zamonaviy talablar darajasida yaratish oson bo‘lmadi.

Biz markaz qurilishini ilmiy tadqiqot va izlanish ishlari bilan barobar ravishda olib bordik. O‘tgan davrda ko‘hna merosimizga oid, bizga umuman noma‘lum bo‘lgan qancha-qancha noyob ma‘lumotlarni kashf etdik.

Xalqaro ekspertlar e‘tirof etganidek, bugun O‘zbekistonda islom sivilizatsiyasi merosini o‘rganish va targ‘ib etish bo‘yicha o‘ziga xos katta ilmiy maktab yaratishga erishdik. Naqadar katta imkoniyatlarimiz, intellektual salohiyatimiz borligini dunyoga namoyon eta oldik.

Bu bilan har qancha faxrlansak, g‘ururlansak, arziydi.

Ushbu noyob majmua salkam 10 gektar hududda joylashgan bo‘lib, binoning umumiy foydalanish maydoni 50 ming kvadrat metrni tashkil etadi. Bu yerda “O‘zbekiston zaminida islomgacha bo‘lgan davr”, “Birinchi va Ikkinchi Renessans”, “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans poydevori” kabi ekspozitsiya zallari mavjud.

Albatta, ularning har biri haqida uzoq gapirish mumkin.

Muzey ekspozitsiyasini shakllantirish va boyitish bo‘yicha ham katta ishlar qilindi. O‘tgan yilning o‘zida 1,5 mingdan ortiq eksponat, jumladan 800 ga yaqin qadimiy qo‘lyozma, arxeologik topilma va tarixiy xarita ekspozitsiyaga joylashtirilgani ham shundan dalolat beradi.

Ayni vaqtda xorijiy auksion uylari, yirik kolleksioner va art dilerlar bilan hamkorlik o‘rnatilib, 743 ta eksponatning original, ya‘ni asl nusxalari yurtimizga keltirildi.

Bunday ishlar ilgari tariximizda bo‘lmagan edi.

Bu eksponatlarining har biri – buyuk o‘tmish va madaniyatimiz, milliy o‘zligimiz timsoli ekanini ta‘kidlash lozim. Ularning barchasi zamonlar sinovidan mardona o‘tib kelayotgan xalqimiz, millatimizning ong-u tafakkuri, bunyodkorona mehnati, noyob mahorati haqida so‘zlaydi.

Tarix tilga kirgan, tarixdan saboq olingan joyda, albatta, bilim va ma‘rifat, taraqqiyot va adolat bo‘ladi. Hech qachon to‘g‘ri yo‘ldan adashilmaydi!

Markazning asosiy zali, ta‘bir joiz bo‘lsa, qalbi – bu, hech shubhasiz, muqaddas Qur‘on zalidir. Bu yerda dunyodagi eng qadimiy 6 ta Qur‘oni karimning biri bo‘lgan mo‘tabar Usmon mus‘hafi bugun o‘zining yuksak maqomiga munosib sharafla o‘rin topdi.

Shuningdek, ushbu zalda turli davrlarga oid nodir Qur‘on qo‘lyozmalari ham jamlangan. Shu muborak kunda barchamiz, Xudoning inoyati bilan, mana shunday noyob va muqaddas Usmon Qur‘onining ilohiy sharofati bilan yurtimiz doimo tinch-osoyishta bo‘lsin, hayotimiz qut-barakaga to‘lsin, deb duo qilamiz.

Qadrli do‘stlar!

Islom sivilizatsiyasi markaziga 2025-yilning o‘zida minglab xorijiy mehmonlar tashrif buyurgani uning hozirdanoq jahon miqyosida katta qiziqish va e‘tibor uyg‘otayotganini tasdiqlaydi. Mehmonlar orasida bir qator davlatlar prezidentlari, parlament va hukumat rahbarlari, deputatlar, senator va lordlar, vazirlar va elchilar, ilm-fan va jamoat arboblari, diniy tashkilotlar rahnamolari borligini ta‘kidlash lozim.

Markazni loyihalash, qurish va zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlashda Fransiya, Xitoy, Buyuk Britaniya, AQSh, Birlashgan Arab Amirliklari, Rossiya, Turkiya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Malayziya, Ozarbayjon, Saudiya Arabistoni, Hindiston, Markaziy Osiyo davlatlari va boshqa qator mamlakatlardan yuksak malakali mutaxassislar ham faol ishtirok etdi.

Ushbu majmuani bunyod etishga munosib hissa qo‘shgan loyihachi va quruvchilarga, mohir muhandislar, olim-u ulamolarga, xorijiy hamkor va ekspertlarga, jumladan O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha butunjahon

jamiyati a‘zolariga, barcha fidoyi insonlarga chin dildan minnatdorlik bildiraman.

Bunday yirik va murakkab madaniy inshootni qurishda homiylik yordamini ko‘rsatgan mahalliy va chet ellik tadbirkorlar, madaniyat va sport namoyandalari alohida rahmat aytaman. Xususan, birinchilar qatorida tashabbus ko‘rsatib, zarur mablag‘, g‘oya va noyob tarixiy eksponatlar taqdim etgani uchun hurmatli vatandoshimiz, mashhur mesenat va biznesmen Alisher Burhonovich Usmonovga samimiy tashakkur izhor etaman.

Xalqimiz bunday oliyanoblik, saxovat va e‘tiborni yuksak qadrlaydi.

Bu ulug‘ ishga qo‘shgan hissangizni hech qachon unutmaymiz.

Katta rahmat Sizga!

Aziz yurtdoshlar!

Islom sivilizatsiyasi markazini barpo etishga kirishar ekanmiz, men, dunyoning qayerida bo‘lmasin, tariximizga tegishli bir varaq qo‘lyozma bo‘lsa ham, bitta eksponat bo‘lsa ham topib, yurtimizga olib kelishni orzu qilgan va shu vazifani o‘rtaga qo‘ygan edim. Ming shukrki, bugun ana shu maqsadimizga asta-sekin erishyapmiz. Bu ishlarni albatta davom ettiramiz.

Jahonning turli mamlakatlarida saqlanayotgan noyob qo‘lyozmalarni aniqlash va o‘rganish uchun yana xalqaro ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etamiz. Buning uchun zarur mablag‘ va imkoniyatlarni topamiz. Bu ishlarga mahalliy va xorijiy olimlar, yetakchi xalqaro ilmiy markazlarni jalb etamiz.

Markaz faoliyatini keng miqyosda yo‘lga qo‘yish maqsadida bu yerda AYSESKO, IRSIKA, Oksford islom tadqiqotlari markazi, Fransiyadagi Temuriylar jamiyati, TURKSOY kabi xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda ular uchun ofis xonalari tashkil etdik. Endi ular bilan hamkorlikni kuchaytirish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib beramiz.

Markazda muqaddas dinimizning ezgu qadriyatlarini asrab, diniy-ma‘rifiy soha rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan O‘zbekiston musulmonlari idorasi ham o‘zining yangi qarorgohiga ega bo‘ldi.

Bu dargohda islom merosini chuqur o‘rganish, diniy xodimlar, imom-xatiblarining malakasini oshirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ishlarini tashkil etish, o‘ylaymanki, maqsadga muvofiqdir.

Biz yaqin kelgusida BMT qarorgohida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazlarining taqdimotlarini ham o‘tkazamiz.

Muxtasar aytganda, ushbu markaz ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishdagi faoliyatimiz uchun fundamental baza bo‘ladi. O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi talabalari yuqori kurslarni shu yerda o‘qiydi, o‘qituvchi-domlalar esa o‘z bilim va malakasini oshiradi.

Markaz yoshlarimiz orasidan yangi Xorazmiylar, Beruniy va Ulug‘beklar, Farg‘oniy va Ibn sinolar, Buxoriy va Termiziylar yetishib chiqishi uchun mustahkam ma‘naviy maydon bo‘lishi kerak.

Bu – barchamizning ezgu niyatimizdir.

Markaz o‘zining mana shunday tarixiy missiyasini yuksak saviyada ado etishi uchun men ilm-fan va ma‘naviyat fidoyilariga – hurmatli olim va tadqiqotchilarga, shoir va adiblar, diniy ulamolar, rejissyor va rassomlar, jurnalistlarga, ijodkor yoshlarimizga murojaat qilmoqchiman:

Islom sivilizatsiyasi markazida to‘plangan har bir eksponat qanday bebaho boylik ekanini sizlar hammadan ko‘ra yaxshi tushunasiz. Ularni targ‘ib etish, xalqimizga, dunyoga tanitishda ham, avvalo, sizlarga tayanamiz.

Bu tengsiz boylikdan ilhomlanib, sizlar yaratadigan ilmiy tadqiqotlar, badiiy kitob, kino va teatr asarlari, kartina va ko‘rsatuvlar uch ming yillik tarix va madaniyatning so‘nmas ovozi bo‘lib dunyoga taralsin!

Yangi O‘zbekistonni tinchlik, ezgulik, bilim va ma‘rifat diyori sifatida olamga tarannum etsin!

Xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz uchun tarbiya va milliy g‘urur maktabiga aylansin!

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

O‘z davrida Mir Alisher Navoiy bobomiz Mirzo Ulug‘bekning o‘lmas merosi dunyo turguncha tursin, deb tilak bildirgan edi. Bizning ham orzu-maqsadimiz shunday: Islom sivilizatsiyasi markazi el-yurtimizga, jahon ahliga hamisha beminnat xizmat qilsin!

Mana shunday ulug‘ ishlarning bunyodkori bo‘lgan mard va oliyjanob xalqimiz doimo omon bo‘lsin!

Muqaddas Ramazon oyida tutayotgan ro‘zalarimiz, qilayotgan ibodatlarimiz dargohida qabul bo‘lsin!

Yaratgan Parvardigor xalqimizni, Vatanimizni o‘z panohida asrasin!

Barchangizga katta rahmat, doimo sog‘-omon bo‘linglar!

"Amir Temur" ordenli Samarqand



Bobomiz o'zining beqiyos jasorati, mustahkam irodasi va ulkan davlatchilik salohiyati bilan nafaqat ulkan saltanat barpo etgan, balki xalqlar taqdiriga ta'sir ko'rsatgan buyuk tarixiy shaxs sifatida nom qozongan.

Bundan tashqari, u ilm-fan, madaniyat va bunyodkorlikka alohida e'tibor bergan. U o'zi tug'ilib o'sgan yurti, poytaxti Samarqandni va bosib olgan yerlarni obod qilib masjidlar, madrasalar, saroylar va bog'lar barpo ettirgan. Sohibqiron turli hududlardan, hatto uzoq mamlakatlardan ham mohir me'morlar, olimlar, hunarmandlar va san'atkorlarni Samarqandga jamlab, ularning faoliyat yuritishi uchun kerakli sharoitlar yaratib bergan. Shu sababli bu shahar qisqa vaqt ichida ilm-fan, madaniyat va me'morchilikning yirik markazlaridan biriga aylangan.

Sohibqironning bunday oqilona siyosati tufayli yurti nafaqat harbiy, balki ma'naviy va madaniy tomonlama yuksalgan. U barpo ettirgan me'moriy obidalar, bog'lar va ilm maskanlari xalqning turmush tarzini yanada farovonlashtirishga xizmat qilgan. **Bugungi kunda ham Temuriylar davrida yaratilgan boy meros xalqimizning iftixori sifatida asrab-avaylab kelinmoqda.**

Bobokalonimizning xotirasi va merosini qadrlash, uning jasorati va davlatchilik an'alarini kelgusi avlodlarga yetkazish hamda abadiylashtirish maqsadida mamlakatimizda nufuzli davlat mukofoti – "Amir Temur" ordeni ta'sis etilgan. Ushbu orden yurtimiz ravnaqiga beqiyos hissa qo'shgan, xalq farovonligi yo'lida fidokorona mehnat qilgan insonlar, ayrim tarixiy shaharlarga beriladi. Zero shaharlar ham o'zining boy tarixi, madaniy merosi va mamlakat taraqqiyotidagi o'rni bilan yurt shon-shuhratini yuksaltiradi.

Ana shunday yuksak e'tirofga sazovor bo'lgan shaharlar qatorida azaldan ilm-ma'rifat, madaniyat va davlatchilik an'analari mujassam bo'lgan, sohibqiron orzu qilgan ulkan saltanatning yuragiga aylangan muqaddas maskan – Samarqand shahri ham bor. Bu shahar asrlar davomida nafaqat Markaziy Osiyoning, balki butun Sharq tamaddunining eng yirik markazlaridan biri sifatida

BUYUK SHAHARNING *ulug' e'tirofi*

Tarix zarvaraqlarini varaqlar ekanmiz, shunday ulug' zotlar nomi ko'zga tashlanadiki, ularning hayoti va faoliyati butun bir xalqning taqdiri, davlatchilik an'analari va insoniyat tamadduni bilan uzviy bog'lanib ketgan. Ana shunday buyuk shaxslardan biri bobokalonimiz Amir Temurdir. U nafaqat tengsiz sarkarda, balki yuksak tafakkurga ega davlat arbobi, adolatni ustuvor qo'ygan dono hukmdor sifatida tarixda o'chmas iz qoldirgan.



tanilgan. Shu bois bu ko'hna shaharning "Amir Temur" ordeni bilan taqdirlanishi uning nafaqat o'tmishdagi buyuk tarixi, balki Temuriylar davrida yuksalgan shon-shuhrati va bugungi taraqqiyotiga berilgan yuksak ehtirom ramzidir.

Ushbu orden 1996-yilning 24-aprel kuni ta'sis etilgan. Shu yilning 18-oktabr kuni esa shahar bayrog'iga "Amir Temur" ordeni taqilgan va shu kun "Samarqand kuni" deb e'lon qilingan.

Bu voqea Samarqand tarixida alohida ahamiyatga ega bo'lib, shaharning ming yillik shonli o'tmishiga va xalqimizning madaniy merosida tutgan o'rniga berilgan yuksak e'tirof sifatida baholandi. Zero Samarqand azaldan ilm-fan, ma'rifat va madaniyat gullab-yashnagan muqaddas maskan sifatida butun dunyoga mashhur. Bu yerda qad rostlagan obidalar, madrasa va masjidlar asrlar davomida xalqimiz ma'naviyati, zehniy salohiyati va bunyodkorlik an'alarining yorqin timsoli bo'lib kelmoqda.

Ayniqsa, sohibqiron Amir Temur davrida bu shahar ulkan saltanat poytaxtiga aylanib, Sharq tamaddunining eng yirik markazlaridan biri sifatida yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgan. Temurning sa'y-harakatlari bilan shahar obod etilib, u yerda me'moriy inshootlar, bog'-rog'lar, karvonsaroy va madrasalar qad rostlagan. Turli yurtlardan kelgan olimlar, hunarmand va me'morlar Samarqandni haqiqiy ilm va san'at markaziga aylantirgan.

Samarqandning "Amir Temur" ordeni bilan taqdirlanishi ana shu tarixiy xizmatlari, buyuk merosi va xalqimizning ma'naviy taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos

hissasiga berilgan yuksak bahodir. Bu orden shaharning faqat o'tmishdagi shon-shuhratini emas, balki bugungi taraqqiyoti, uning yurtimiz hayotidagi o'rni va kelajakka qaratilgan ulkan imkoniyatlarini ham e'tirof etadi.

Bugun ham Samarqand o'zining qadimiy shuhratini saqlagan holda zamonaviy taraqqiyot yo'lidan bormoqda. Shaharda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari, tarixiy obidalarini asrab-avaylash va tiklash borasidagi sa'y-harakatlar uning jahon tamaddunidagi o'rnini yanada mustahkamlamoqda. Samarqand nafaqat O'zbekistonning, balki butun insoniyatning bebaho madaniy merosi sifatida e'tirof etilib, dunyo xalqlarini o'ziga maftun etib kelmoqda.

Bu mukofot nafaqat shaharning faxriy nishoni, balki xalqimizning buyuk o'tmishi, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosiga bo'lgan hurmat ramzidir. "Amir Temur" ordeni uning ana shu ulug'vor maqomini yana bir bor tasdiqlab berdi.

Bu orden ayni paytda sohibqiron barpo etgan buyuk davlatchilik an'analari, bunyodkorlik ruhi va yuksak ma'naviy qadriyatlarining davomiyligini ham anglatadi. Zero Samarqand Temuriylar davrida

nafaqat ulkan saltanat poytaxti, balki Sharq sivilizatsiyasining markazlaridan biri sifatida tarix sahifalariga muhrlangan.

Umuman olganda, **"Amir Temur" ordeni oddiy mukofot emas, balki tarixga ehtirom, milliy g'urur va davlatchilik an'alariga sadoqat timsolidir.** U xalqimizning buyuk ajdodlari qoldirgan merosni asrab-avaylash, uni yanada boyitish va kelajak avlodlarga yetkazish mas'uliyatini ham anglatadi. Shu ma'noda Samarqandning ushbu yuksak orden bilan taqdirlanishi nafaqat uning buyuk o'tmishiga berilgan baho, balki kelajak taraqqiyotiga bo'lgan ishonch va e'tiborning yorqin ifodasi sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

M. JABBOROV



“HARBIY QISM YETTILIGI” —



Mamlakatimizda so'nggi yillarda inson qadrini ulug'lash, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, fuqarolarning farovon hayot kechirishi uchun keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda aholi bilan manzilli ishlash, ularning muammo va ehtiyojlarini o'z vaqtida o'rganib, yechim topish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, mahalla institutining imkoniyat va salohiyatini yanada kuchaytirish, uni jamiyat hayotidagi eng muhim ijtimoiy bo'g'inga aylantirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mahalla azaldan xalqimiz hayotida ahillik, hamjihatlik va o'zaro ko'mak maskani sifatida shakllangan. Bugun esa u nafaqat fuqarolarning dardini tinglaydigan, balki muammolariga yechim izlaydigan va davlat idoralari bilan aholi o'rtasida mustahkam ko'priq vazifasini o'taydigan muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda.

Binobarin, bugungi kunda mahalla tizimini yanada rivojlantirish, aholi bilan manzilli ishlashni yo'lga qo'yish va fuqarolar muammolarini joyida hal etish maqsadida qator yangi mexanizmlar joriy qilinmoqda. Jumladan, **mahallalarda “mahalla yettligi” faoliyati yo'lga qo'yilib, aholi bilan ishlashning yanada samarali va tizimli mexanizmi yaratildi.** Bu orqali mahallalardagi har bir oila holatini o'rganish, aholining ijtimoiy muammolariga yechim topish, yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga e'tibor qaratish, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish ishlari tizimli ravishda yo'lga qo'yildi. Bu esa mahallalarning jamiyat hayotidagi ta'sirini yanada kuchaytirib, fuqarolarning davlat siyosatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda.

Ayni paytda mazkur tajriba faqatgina mahallalar doirasida emas, balki turli sohalar faoliyatida ham qo'llanilmoqda. Xususan, **Mudofaa vazirligi tizimida ham “mahalla yettligi” andozasi asosida “harbiy qism yettligi” tizimi yo'lga qo'yildi.** Ushbu tizimni joriy etish orqali harbiy xizmatchilarning ijtimoiy muammolarini o'rganish, jamoa ichidagi muhitni yanada sog'lomlashtirish hamda harbiy intizomni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda Mudofaa vazirligi tizimida joriy etilgan mazkur tizim O'zbekiston Respublikasi Qurolli



Kuchlari tarkibidagi harbiy qism va muassasalarda bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Xususan, Toshkent harbiy okrugi tasarrufidagi harbiy qism va muassasalarda ham “harbiy qism yettligi” faoliyati yo'lga qo'yilib, u orqali harbiy xizmatchilarning muammolarini tezkor aniqlash va hal etish, shuningdek harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolari ijtimoiy ahvolini o'rganish samarali ravishda tashkil etilmoqda.

Mazkur tizim doirasida harbiy qism komandirlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ullar, psixologlar, moliya yo'nalishidagi mutaxassislar hamda boshqa tegishli shaxslar o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritib, harbiy xizmatchilar bilan ishlashning yangicha usullari yo'lga qo'yilmoqda.

– Yurtimizda olib borilayotgan izchil islohotlar natijasida bugun mahalla tizimida “mahalla yettligi” aholining turli muammolarini hal etishda muhim mexanizm sifatida o'zini namoyon qilmoqda, – deydi Toshkent harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondonining o'rinbosari podpolkovnik Nozimjon Bulturov. – Ushbu tizim joriy qilinishi orqali respublikamizdagi mahallalarning qariyb 60 foizi qoniqarsiz hududdan sog'lom va barqaror hududga aylandi. Mana shu tizim andozasi asosida joriy yilning mart oyidan boshlab “harbiy qism yettligi” faoliyati yo'lga qo'yildi.



ARMIYANING ISHONCHLI TAYANCHI



Ushbu tizimga jalb etilgan mutaxassislar har oyning yakuni bo'yicha qilingan ishlar yuzasidan ma'lumot shakllantirib, harbiy qism komandiriga hisobot beradi. Shuningdek, tizim hech bir nuqsonsiz ishlashini ta'minlash maqsadida harbiy okrug va muassasalarning tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari boshchiligidagi "nazorat va ko'maklashuv guruhlari" tuzilgan bo'lib, ular yettilikning faoliyatini doimiy ravishda nazorat qilib boradi.

"Harbiy qism yettiligi"ning asosiy maqsadi – harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-ma'naviy muhitini yanada mustahkamlash, ularning oilaviy ahvoli, turmush sharoiti hamda xizmat faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan muammolarni o'z vaqtida aniqlab, ularga amaliy yordam ko'rsatishdan iborat. Shuningdek, mazkur tizim orqali harbiy xizmatchilar o'rtasida intizomni mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, yosh harbiylarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yettilik tarkibiga xizmat faoliyatiga bevosita daxldor bo'lgan mas'ul ofitserlar, tarbiyaviy ishlar, moliya sohasi bo'yicha



Muallif suratga olgan



olib boriladi hamda ularni manzilli qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar harbiy qism komandiriga taqdim etib borilishi belgilangan. Bu esa aholi va harbiy xizmatchilar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash, mavjud muammolarni erta aniqlash hamda ularni tizimli ravishda bartaraf etish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, mazkur mexanizm orqali nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy masalalar, balki ma'naviy-ma'rifiy muhitni yaxshilashga qaratilgan tashabbuslar ham qo'llab-quvvatlanmoqda.

Darhaqiqat, ushbu tizimning joriy etilishi harbiy xizmatchilar hayoti va faoliyatida muhim ijobiy o'zgarishlarga zamin yaratmoqda.

Mazkur tizim avvalo harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga xizmat qilib, ularning xizmat davomida uchrashi mumkin bo'lgan muammolarini erta aniqlash va bartaraf etish imkonini yaratadi.


Shuningdek, "harbiy qism yettiligi" orqali xizmatchilarning oilaviy sharoiti, ruhiy holati va ijtimoiy ahvoli muntazam o'rganib borilayotgani jamoada sog'lom ma'naviy muhit shakllanishiga katta hissa qo'shadi. Bu esa harbiy xizmatchilar o'rtasida o'zaro hurmat, hamjihatlik va bir-birini qo'llab-quvvatlash kabi muhim qadriyatlarni yanada mustahkamlaydi. Bunday muhitda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar o'z burchini yanada yuksak mas'uliyat bilan ado etishga intiladi.

Tizimning yana bir muhim jihati shundaki, u intizomni mustahkamlash, huquqbuzarliklar va turli salbiy holatlarning oldini olishda samarali mexanizm sifatida xizmat qilmoqda. Muammolarning ildizi chuqur o'rganilib, ularga o'z vaqtida chora ko'rilishi harbiy qismlarda barqarorlik va tartib-intizomni ta'minlashga yordam beradi.

Eng muhimi, mazkur tizim milliy armiyamizning qudrati va jangovar salohiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Chunki **harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligi, ijtimoiy himoyasi va jamoadagi sog'lom muhit armiyaning jangovar shayligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Muammosi hal etilgan, o'z oilasi va kelajagiga ishonchi mustahkam harbiy xizmatchi Vatan himoyasida yanada fidoyilik va sadoqat bilan xizmat qiladi.**

Shu tariqa "harbiy qism yettiligi" tizimi nafaqat harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-ma'naviy hayotini yaxshilash, balki milliy armiyamizning barqarorligi va jangovar salohiyatini oshirishda ham muhim o'rin tutadi. **Bunday tizimli yondashuv Qurolli Kuchlarimiz safida birdamlik, mas'uliyat va Vatanga sadoqat tuyg'ularini yanada mustahkamlab, mamlakatimiz tinchligi va xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.**

**Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
"Vatanparvar"**



mutaxassislar, psixologlar hamda boshqa tegishli shaxslar jalb etilib, harbiy qismda sog'lom ma'naviy muhitni ta'minlash, jamoada o'zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlash yo'lida doimiy ish olib boradi. Bu esa, o'z navbatida, harbiy xizmatchilarning xizmatga bo'lgan mas'uliyatini oshirish, ularning Vatan himoyasidagi fidokorona faoliyatini yanada rag'batlantirishga xizmat qiladi.

– Ushbu tizim amaliyotga tatbiq etilgandan buyon ko'plab murojaatlar tegishli tartibda o'rganilib, ularning aksariyati joyida va qisqa muddatlarda ijobiy hal etilmoqda, – deydi xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha yetakchi mutaxassis Mahfira Allaberganova. – Bundan tashqari, tizimda kamchiliklar kuzatilmasligi uchun haftalik va har oylik amalga oshiriladigan ishlarimiz qat'iy belgilangan. Jumladan, har haftada 20–25 nafar va har oyda kamida 30–35 nafar, birinchi navbatda, nizoli, oilaviy ajrim yoqasiga kelib qolgan yoki boshqa oilaviy muammolari qayd etilgan harbiy xizmatchilarning oilasiga tashrif buyurib, u yerdagi muhit, er-xotin munosabatlari, farzand tarbiyasi, uchinchi shaxs aralashuviga oid masalalar o'rganiladi. Shuningdek, harbiy xizmatchilarning nogironligi bo'lgan oila a'zolari bilan yakka tartibda hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar

Shukronalik



BIRLIKDA RIVOJ, BIRGALIKDA MUVAFFAQIYATGA ERISHILADI

Jamiyatning rivojlanishida, davlatning taraqqiyot pillapoyalaridan yanada dadil ko'tarilishida aynan birlik o'ta muhim hisoblanadi. Bu finchlik va barqarorlikning ham oltin asoslaridandir. Zotan, o'zaro hamjihatlikda, bir maqsad yo'lida harakat qilinganda yutuqlar yutuqlarga ulanadi. G'oliblar soni ko'payadi.

Bugun mamlakatimizda birgalikda harakat qilish muvaffaqiyat kaliti ekanini fuqarolarimiz teran angelayпти. Bu borada milliy armiyamiz saflarida qasamyodiga sodiq turib, chin farzandlik burchini o'tayotgan o'g'lonlar ham ushbu mas'uliyatni his qilib kelmog'ida.

– Armiyaning qudrati zamonaviy qurol-aslaha va texnikalar bilan o'lganmaydi, – deydi podpolkovnik Nizomiddin Atadjanov. – U saflardagi o'g'lonlarning o'ziga bo'lgan ishonchi, hamjihatligi, mahorati va tajribasi bilan ham belgilanadi. Nega aynan jipslik xususida alohida to'xtalayman? Chunki bugungi notinch zamonda shaxsiy tarkibning birligi o'ta muhim masala. Tinchlikni ta'minlashda, osoyishtalikni saqlashda ham bu o'z ifodasini topishi kerak va topyapti ham. Fikrimni harbiy xizmatchilar ishtirokidagi mashg'ulotlar misolida davom ettirsam. O'quvlarida ham biz ushbu jihatni yanada mustahkamlashga e'tibor qaratamiz. Vazifalarni bajarishda guruhning hamjihatligini ta'minlashni muvaffaqiyatga eltadigan yo'l sifatida belgilab olganmiz. Ishoning, bu quruq gaplar emas. **Bugungi armiya saflaridagi azamatlar har tomonlama bilimga ega. Ular nima uchun xizmat qilayotganini teran anglagan. Tinchlikning haqiqiy posbonlari ekanliklarini birzum bo'lsin esdan chiqarmaydi.** Hech qachon yakkalik natija keltirmasligini, faqat jipslik va birlik bor joyda zafar quchish mumkinligini misollarda ko'rib, o'z boshlaridan o'tkazib xizmat qilmoqda. Demak, qayerda birdamlik bo'lsa, yutuqlar davomiy bo'ladi.

Moziyga nazar tashlasak, ko'plab xalqlar birlik tufayli qiyinchiliklarni yengib o'tgan. Zafar darvozalaridan kirib, farovon hayot qurgan. Sog'lom jamiyatga asos solgan. Ha, birlashgan jamoa har qanday to'siqni ortda qoldirishga qodir. Aksincha, ixtilof va kelishmovchiliklar taraqqiyotni kechiktiradi, jamiyatni zaiflashtiradi. Bu masalada ko'plab misollar keltirish mumkin. Shuning uchun tarixdagi xatolardan xulosa chiqarib, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni kelajakda takrorlamaslik uchun aniq rejalar ishlab chiqilmoqda. **Hozir va ertangi kunni yanada yorqin ranglar bilan bo'yash, odamlar qalbida rozilik, minnatdorlik kabi insoniy tuyg'ularning yanada jonlanishi uchun muhim tashabbuslar, sharoitlar yaratib berilmoqda.** Zotan, kelajagiga ishonchi bor xalq hech qachon harakatdan to'xtamaydi. Armiyada ham shunday. Askar chegarani birzum himoyasiz qoldirmaydi. U tinchlik posboni. Demak, xalqning ishonchi armiyaning qudratini oshiradi, mustahkamlaydi.



– Davlatimiz rahbari, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar milliy armiyamizni ham chetlab o'tmadi, – deydi podpolkovnik Oybek Qosimov. – Bugun yangilanib, kundan kunga zamonaviy qiyofa kasb etayotgan armiyamizda harbiy bilimlar bilan amaliy mashg'ulotlar uyg'unligini ta'minlash ham ustuvor vazifalar sirasiga kiradi. Endi oldingidan farqli o'laroq harbiy qism va bo'linmalarda jangovar mashg'ulotlar bir necha barobar ko'paytirildi. Ta'kidlash kerakki, yurt o'g'lonlari o'rtasida o'zaro ijobiy tajriba almashish va sog'lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida turli musobaqa va tanlovlar ham yo'lga qo'yilgan. **Bu esa jamoalarning birgalikda harakat qilish qobiliyatini yanada oshiribgina qolmay, ularning yuzaga kelgan masalalarga tezkor yechim topish uchun yagona g'oya – Vatan oldidagi burchni chuqur anglash asosida birlashishiga xizmat qiladi.** Qisqasi, biz bugun tarix yaralishiga bevosita guvoh bo'lyapmiz. Nega unday deyapman? Chunki so'nggi yillarda mamlakatimizda mudofaa va xavfsizlik sohasida amalga oshirilgan o'zgarishlar Qurolli Kuchlarimiz rivojining yangi davrini boshlab berdi. Bu esa Yangi O'zbekistonda tinchlik va osoyishtalik, barqaror taraqqiyotni ta'minlash vazifasini bajaradigan milliy armiyamizning yanada rivojlanishiga, kuch-qudrati va salohiyati ortishiga xizmat qilmoqda.



Qo'shinlarimiz jangovar qudratini oshiruvchi omillardan biri sohaga har tomonlama salohiyatli mutaxassislarni jalb etish hamda harbiy qism va muassasalarni o'z kasbining fidoyilari bilan butlashdir.

– Yaqinda o'qishni tamomlayman, – deydi O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining 4-bosqich kursanti Hosilbek G'afurjonov. – O'tgan vaqt davomida soha bo'yicha ustozlardan chuqur bilim oldim. Kasbimizning mahoratli vakili bo'lish uchun yaratilgan sharoit va imkoniyatlardan unumli foydalanishga harakat qildim. Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni biz, yoshlarga bildirgan ishonchini oqlash uchun tinmay o'qiyapman. **Mana endi o'rgangan, o'zlashtirgan ko'nikmalarimizni qo'shinlarga borib, shaxsiy tarkibning jangovar shayligini yanada oshirish, vatanparvar farzand o'laroq berilgan vazifalarni sidqidildan bajarishlari uchun safarbar etaman.** Yana shuni ham alohida ta'kidlashim kerakki, Yurtboshimiz ayniqsa kursantlarning sifatli ta'lim olishlari uchun muhim sharoitlar yaratib bermoqda. Masalan, men Oliy Bosh Qo'mondon stipendiyasini ilk bor qo'lga kiritgan kursant sifatida o'zimni juda ham baxtiyor his etaman va bu yelkamga ulkan

mas'uliyat yuklaganini alohida ta'kidlashim kerak. Bir o'ylab ko'ring, sharoit bor, imkoniyat yaratilgan. Faqat Vatan oldidagi yigitlik burchiga sodiq tursangiz bas. Oldinga ko'plab maqsadlar qo'yganman. Shulardan biri – bo'linmalarga borganimizda guruhning jamoaviy birdamligini yanada mustahkamlash. Nega bunday deyapman? Chunki g'alaba nashidasi aynan birlikning yaxshi shakllanganidan qo'lga kiritiladi. Asosiysi, yurtimiz, xalqimiz oldidagi farzandlik burchimizni munosib oqlay olish.

Albatta, davlatimiz tomonidan tinchligimiz posbonlariga ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik sabab ularning xizmat va yashash sharoitlari yanada yaxshilanmoqda. Mazkur sa'y-harakatlardan nafaqat harbiy xizmatchilar, balki ularning oila a'zolari, yaqinlari ham mamnun bo'lyapti.



– Bugun biz ko'p yillik orzumizga yetdik, – deydi mayor Qurbonmurod Usmonov. – Chunki xizmat burchimizni bajarish davomida mamlakatimizning turli hududlarida vaqtincha yashashga to'g'ri keldi. Har safar ko'chishga to'g'ri kelganda, yuragimiz bir o'ynab olardi. **Mana endi davlatimizni biz, harbiy xizmatchilarga qaratayotgan e'tibori natijasida Vatan ichida Vatanga ega bo'ldik. Bu qanchalar baxt ekanini bilsangiz edi...** Boisi oilasidan ko'ngli to'q harbiy xizmatchi o'z majburiyatini bekam-u ko'st bajaradi. Farzandlarim, rafiqamning ham bu qo'llovdan ko'ngli tog'dek ko'tarilgan. Asosiysi, o'g'il-qizlarimiz o'z xonadonlarimizda ulg'ayyapti. Yurt uchun kerakli kadr bo'lib yetishish yo'lida ana shu oshyonimizda ta'lim-tarbiya olyapti. Ishontirib aytamanki, bu e'tibor, bu g'amxo'rlikka javoban borimni, imkoniyatlarimni va kasbiy salohiyatimni safarbar etaman.

Umuman olganda, milliy armiyamizda amalga oshirilgan izchil islohotlar o'zining ijobiy natijalarini bugun ko'rsatmoqda. Xususan, xalq va armiyaning birdamligi, yakdilligi ta'minlandi. Ayniqsa, yoshlar armiyaning hayot maktabi ekanini to'la-to'kis anglab yetmoqda. **Harbiy xizmatchilarning azm-u shijoati, jasorati va yurtga sadoqatli farzand o'laroq sodiqligidan kuch olayotgan o'g'il-qizlar sharaflari va mas'uliyatli kasbga bo'lgan qiziqishlari yanada ortmoqda.** Bu ham bag'rikenglikning amaliy ifodasi aslida.

Xulosa o'rniida aytganda, milliy armiyamiz erkimiz, barqaror taraqqiyotimizning garovi sifatida yangi marralarni zabt etishda davom etaveradi. **Yangi O'zbekistonning yangi armiyasining saflarida bugun xizmat olib borayotgan Vatan himoyachilari yaratilgan ana shu sharoitlardan unumli foydalanib, kasbining sir-asrorlarini chuqur o'rganaveradi.**

Zotan, ularning maqsadi, tinchlikni hamisha asrash va unga qalqon bo'lish, osoyishtalikni ta'minlash hamda bildirilgan ishonchga munosib farzand bo'lib, sidqidildan xizmat qilishdir. Chunki birlikda rivoj, birgalikda muvaffaqiyatga erishiladi.

**Kapitan Shohrux SAIDOV,
“Vatanparvar”**

Kitob ko'targanlar

"Hamma o'zi bilan o'zi ovora", degan gap ota-bobolarimizdan bizgacha kelmoqda. Otam ham ko'p ishlatardi. Hozir o'ylab qoldim, o'sha davrlarning o'raligi qanaqa bo'lgan ekan? Agarda o'sha odamlar bugunimizni ko'rganida nima degan bo'lardi? Aniq eslayman, yoshligimizda qishloq ahli, qo'ni-qo'shni bir-biri bilan ahil-inoq yashardi. Onam to'rtta non yopsa, ikkitasini qo'shnilarga ilinardi. Mehmondo'stlik, bordi-keldi degan an'analarni aytmayisizmi? Qo'lida kitob ko'targan bobolar bizga turli hikoya, qissalardan aytib ketardi. Xayolimiz internet, ijtimoiy tarmoqlarga yem bo'lmagan mahallar qanday ajoyib kunlarni yashab qo'yganmiz.

Kecha yegan taomini unutgan bugungi avlodni yodida hamon o'sha ertag-u masallar, qissa-yu romanlar jon saqlab turgani bor gap. Yuqorida ta'kidlaganim, o'zimiz bilan o'raligimiz esa bizni bir qadar jar yoqasiga yetaklayotgani ham sir emas. Xo'sh, bu botqoqdan nima xalos etadi, dersiz? **Albatta, ilm-u ma'rifat ummoni bo'lgan – kitob qutqaradi.**

Kitob o'qigan odam qavm-u qarindosh, do'st-u birodarlarga silayi rahmli bo'ladi. Chunki ko'ngil ko'zlari ochiq odam dunyoga o'zgacha nigohda boqadi. Yashamoq faqat moliyaviy ehtiyojlardan iborat emasligini anglagan, birovning dardini ko'rib jim ketolmagan insonlar Vatanini ham joni dili bilan sevadi.

Oxirgi yillarda olib borilayotgan islohotlardan bir karra o'sadi odam. Ayniqsa, kitobxonlikka qaratilayotgan e'tibor ko'ngilni ravshan qiladi. Metro, avtobuslarda kitob ko'targanlar ko'paygani katta quvonchli hodisa. Bundan bir-ikki yil avval ham shunaqa odamlarni ko'rsak, hayrat bilan boqardik. Yo'lida Xizr uchragandek uni rasimga olib, ijtimoiy tarmoqlarga joylab, metrodagi kitobxon qiz yoki yigit deb ajablanardik.

Quvonarlisi, bugungi kunga kelib, bu holat asta-sekin oddiy va tabiiy manzaraga aylanib bormoqda. Metro yoki avtobusda kitob mutolaa qilayotgan yoshni ko'rish endi hayrat emas, balki qalbni quvontiruvchi oddiy holdek qabul qilinmoqda. Aslida ham shunday bo'lishi kerak edi. **Zero millatning har bir fuqarosi qo'lida ilm kaliti – kitob bo'lsa, jamiyatning ma'naviy qiyofasi ham yuksaladi.** Shunday darajaga yetishimiz kerakki, kitob o'qiyotgan odamni emas, balki kitob o'qimagan odamni ko'rib, ajablanadigan bo'laylik. Axir biz kimning avlodlarimiz? Ilm va ma'rifatni ulug'lagan, butun dunyoga ma'rifat nurini sochgan ulug' allomalarning davomchilari emasmidik? Olisdan turib, bizga hayrat va umid bilan qarayotganlar bor. Ana shunday paytda biz ularga munosib javob berib, buyuk ajdodlarimizning haqiqiy vorislari ekanimizni amalda ko'rsatish vaqti yetib keldi. **Bilingki, millatni tanazzuldan ilmdan o'zga narsa qutqarmaydi.** Shunday ekan, joylarda kompyuterxona, do'kon, dorixona va kafe-barlarni emas, kutubxonalarni ko'paytirish kerak.

O'tgan asrda ilm-u urfon yo'lida, millatni uyg'otish dardida qurbon bo'lgan jadid bobolarimizning ham orzu-armonlari shu kunlar edi. Boshimizda turgan bu ulug' kunlar shukronasini aylamoq chog'idir bugungi yorug' kunlar.

Yuqorida ta'kidlaganim, ertak-matalchi bobolar davomchilari bugungi kunda ham tirik, balki ulardan-da yaxshiroq yo'sinda yuz ko'rsatmoqda. Birgina "Mutolaa" ilovasi sizga eng yaxshi hamroh bo'lishi mumkin bo'lgan dasturilamallardan. O'sha ertakchi bobolar bugun siz bilan har qadamda hamroh ekanini anglashimizning o'zi kifoya. Vaqtingiz borida kitobning o'zini mutolaa qilishga hech nima yetmaydi.

Agar mendan yaxshi odamlar kim deb so'rasangiz, kitob ko'targanlar deb javob beraman. Dunyoning o'tkinchligini anglagan, asli bir burda non bilan to'yadigan nafsni bir dunyo hoyu havas bilan ham to'yg'izib bo'lmashligini tushunganlar, kitob ko'targan odamlar. Tog'ay Murod tili bilan aytganda, "Oydinda yurgan odamlar"dir ular.

Otam aytardi: **"O'zbekning javonida Navoiy, Sheroziy, Bobur, Mashrab devonlari, Alpomish, Kuntug'mush, Go'ro'g'li dostonlari bo'lmog'i kerak"**. Uyimizda qo'lda ko'chirilgan kitoblar hozirgacha saqlanib qolgan, o'sha paytlar bunday xazinani topish muammo bo'lgan davrlarda otam do'stlaridan kitob olib kelib, qo'lda ko'chirib qo'yardi. Qishning sovuq kunlarida sandal atrofida bizga g'azal-u dostonlar o'qib berardi. O'sha

onlarda kitoblardagi hikmat, har bir so'z qalbimizga singgan. Shu tariqa kitob va ma'rifatga bo'lgan muhabbat otamizdan biz farzandlarga ko'chib, hayotimizning ajralmas qismiga aylandi.

"Tuyaning yuki yengil kelgani sari baqiroq keladi" deganidek, bugungi odamlarga qancha imkoniyat yaratilgani sari o'zini bo'shliq tomon olib qochmoqda. **Do'konlar to'la kitob, kutubxonalar tekin, izlaganga har narsa mujassam bu dorulamon kunlarni havoga shunchaki sovurish yaxshi emas ekanini anlaymiz, ammo amalimiz no'noqlik qilaveradi.** Ey insonlar! Qo'lingizdagi matohga qullik qilishdan tiyilib, atrofga nazar soling, yarim umringizni yashab qo'ygan bo'lishingiz mumkin. Agar unda ko'proq bo'lmasa. Vaqtini boqiyga sarflashdan saqlaning, har bir kun va soniyani ma'naviy boylikka aylantiring. **Kitob va ilm orqali ochiladigan dunyo sizning qalbingizni boyitsin, ruhingizni ko'tarsin, har bir kunni haqiqiy ma'noda yashash imkonini bersin.**

So'zimning boshida takrorlaganim, o'zi bilan o'ralikning asl sababi ham bugunning imkoniyatlaridan noto'g'ri foydalanishdir. Quyosh hanuz zarrin nur sochmoqda. Osmon ko'm-ko'k, bulutlar kemalardek suzib yuribdi. Ko'zingizni oching, tabiatni telefoningizdagi videorolik orqali emas, tabiiy tomosho qiling! Kitob ko'targanlarga ergashing, yaqinlar suhbatiga oshno bo'ling! Zero umr qisqa, fursat g'animatdir.

Muhammadali G'AFFOROV,
"Vatanparvar"



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Yurt himoyasi

HAYOT MAKTABI SARI

Yangi O'zbekiston bog'ida muddatli harbiy xizmatga jo'nab ketayotgan chaqiriluvchilarning tantanali kuzatish marosimi bo'lib o'tdi. Unda Toshkent harbiy okrugi qo'mondonligi, Qurolli Kuchlar faxriylari, jamoatchilik vakillari, mutasaddi tashkilotlar xodimlari hamda chaqiriluvchilarning ota-onalari va yaqinlari ishtirok etdi.

Bayramona ruhda o'tgan marosimda yurt himoyasiga o'tlanayotgan yoshlar uchun samimiy tilaklar bildirildi. So'zga chiqqan mas'ullar Vatan himoyasi har bir yigit uchun ulkan sharaf va mas'uliyat ekanini takror aytishdi. Ta'kidlanganidek, harbiy xizmat nafaqat konstitutsiyaviy burch, balki yoshlarning jismoniy va ma'naviy jihatdan chiniqib, qat'iyatli va intizomli bo'lib shakllanishida muhim hayot maktabi hisoblanadi.

Faxriy harbiylar ham chaqiriluvchilarga murojaat qilib, xizmat davomida harbiy intizomga qat'iy rioya qilish, zamonaviy harbiy bilim va ko'nikmalarni puxta egallash, safdoshlariga sodiq bo'lish zarurligini ta'kidladi. Ular yurt



himoyasiga o'tlanayotgan yigitlarga omad va matonat tilab, kelgusida Vatan ravnaqi yo'lida munosib hissa qo'shadigan yetuk fuqarolar bo'lib yetishishlariga ishonch bildirdi.

Tadbir davomida ota-onalar ham farzandlariga ezgu tilaklar bildirib, ularni Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishga chorladi. Yoshlarning ko'zida g'urur va ishonch, ota-onalar qalbida esa farzandlari bilan faxrlanish tuyg'usi namoyon bo'ldi.

– Muddatli harbiy xizmatga jo'nab ketayotganimdan juda faxrlanaman, – deydi chaqiriluvchi Ismoil Ibrohimov. – Vatan himoyasiga hissa qo'shish har bir yigitning muqaddas burchi, deb bilaman. Albatta, harbiy xizmat davomida men intizomli bo'lishga, yangi bilim va ko'nikmalarni puxta egallashga harakat qilaman. Ota-onam va ustozlarim bildirgan ishonchni oqlash men uchun juda muhim. Shu sababdan ham xizmatni munosib o'tab, kelajakda yurtimiz ravnaqiga foydasi tegadigan inson bo'lib yetishishni maqsad qilganman...



Tantanali marosim yakunida muddatli harbiy xizmatga yo'l olgan chaqiriluvchilar ota-onalari, yaqinlari va keng jamoatchilik vakillarining ezgu tilaklari ostida tantanali ravishda kuzatildi. Ularning safga qo'shilishi yurt tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash yo'lidagi muhim qadam sifatida e'tirof etildi.

Sherzod EGAMBERDIYEV,
"Vatanparvar"



Muqaddas burch

Yigitlar

VATAN HIMOYASIGA kuzatildi

Farg'ona viloyati mudofaa ishlari boshqarmasida chaqiruv yoshiga yetgan yigitlarni muddatli harbiy xizmatga saralash tadbirlari o'tkazildi. Ushbu jarayon yoshlarning jismoniy tayyorgarligi, bilim saviyasi hamda sog'lig'ini har tomonlama baholash orqali amalga oshirildi. Bir necha bosqichli sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan yigitlar esa tantanali ravishda muddatli harbiy xizmatga kuzatildi.



xizmat esa yoshlar uchun jasorat, matonat va intizom maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Tadbir ota-onalar ham farzandlariga ezgu tilaklarini yo'llab, ularga harbiy xizmat davomida sabr-toqatli, mard va fidoyi bo'lishni tiladi. Faxriylar esa yoshlarni harbiy intizomga qat'iy amal qilishga, Vatan sha'ni va xalq tinchligini munosib himoya qilishga undadi.

Marosim yakunida yigitlar ota-onalari va yaqinlari bilan xayrlashib, qalblarida Vatanga sadoqat va g'urur tuyg'ulari bilan yurt himoyasi sari yo'l oldi.

Kuzatish marosimi ko'tarinki ruhda, vatanparvarlik tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan holda tashkil etildi. Unda Sharqiy harbiy okrug qo'mondonligi mas'ul ofitserlari, viloyat faxriylar kengashi vakillari, davlat va jamoat tashkilotlari mutasaddilari, shuningdek chaqiriluvchilarning ota-onalari hamda yaqinlari ishtirok etdi.

Marosim davomida so'zga chiqqanlar ota-onalarga farzandlarini Vatanga sadoqat ruhida, mard va jasur etib tarbiyalagani uchun samimiy minnatdorlik bildirdi. Ta'kidlanganidek, Vatanni himoya qilish har bir yigit uchun nafaqat muqaddas burch, balki yuksak sharaftir. Harbiy



Gulihumo MAJIDOVA,
Sharqiy harbiy okrug matbuot
xizmati bosh mutaxassisi

Uch avlod uchrashuvi

JASORATGA RUHLANTIRGAN DAVRA



Bugungi kunda dunyo miqyosida kechayotgan murakkab jarayonlar, globallashuvning turli ta'sirlari sharoitida yosh avlodni milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki har qanday davlatning ertangi kuni, uning tinchligi va taraqqiyoti, avvalo, bugungi yoshlarning qanday ma'naviy muhitda ulg'ayayotgani bilan chambarchas bog'liq.

Shu bois yurtimizda avlodlar o'rtasidagi vorislikni mustahkamlash, katta avlod tajribasini yoshlar bilan baham ko'rish hamda ular qalbida Vatanga sadoqat, milliy g'urur va mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar muntazam tashkil etib kelinmoqda.

Markaziy harbiy okrug Samarqand garnizonidagi ma'naviyat va ma'rifat markazida bo'lib o'tgan uch avlod uchrashuvi ana shunday ezgu maqsadlarga xizmat qilgan muhim tadbirlardan biri bo'ldi.

Unda respublika, viloyat va tuman "Nuroniylar" jamg'armasi vakillari, harbiylar, faxriylar hamda Urgut tumanining o'quvchi-yoshlari ishtirok etdi. Uchrashuv davomida turli avlod vakillari o'rtasida samimiy muloqot, fikr almashuv va hayotiy saboqlarga boy suhbatlar bo'lib o'tdi.

Tadbir davomida so'zga chiqqan faxriylar o'zlarining hayotiy tajribalari, xizmat faoliyati hamda o'tgan davrlarning saboqlari haqida so'z yuritdi. Ular yoshlar bilan suhbat davomida bugungi tinch hayotning qadriga yetish, ota-bobolar merosini asrab-avaylash hamda yurt ravnaqi uchun sidqidildan mehnat qilish har bir fuqaroning muqaddas burchi ekanini alohida ta'kidladi.

Faxriylarning samimiy va hayotiy misollarga boy hikoyalari yoshlar qalbida chuqur taassurot qoldirdi. Chunki inson hayotida kitobdan o'rganadigan bilim bilan bir qatorda hayot tajribasi ham katta ahamiyatga ega. Nuroniylarning aytishicha, bugungi yoshlar Vatan kelajagi uchun mas'ul bo'lgan avlod. Shuning uchun ular ilm olishga intilishi, yurt taraqqiyoti yo'lida



fidoyilik ko'rsatishi va milliy qadriyatlarni hurmat qilishi zarur.

Tadbir davomida harbiy xizmatchilar ham so'zga chiqib, mamlakatimiz Qurolli Kuchlarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar haqida ma'lumot berdi. Ta'kidlanganidek, bugungi kunda yurtimiz mudofaa salohiyatini mustahkamlash, zamonaviy harbiy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash hamda harbiy xizmatchilarning professional tayyorgarligini oshirish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni jismonan va ma'nan chiniqtirish borasida ham qator loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Harbiy xizmatchilar yoshlar bilan ochiq muloqot o'tkazib, ularni qiziqtirgan savollarga batafsil javob berdi. Bu esa yoshlarning harbiy xizmat haqidagi tasavvurlarini yanada kengaytirishga xizmat qildi.

Tadbir davomida Urgut tumanining o'quvchi-yoshlari tomonidan tayyorlangan badiiy chiqishlar ham namoyish etildi. Vatan, tinchlik va jasoratni madh etuvchi she'rlar, sahna ko'rinishlari va

badiiy chiqishlar tadbirga o'zgacha ruh bag'ishladi. Bu esa yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat va milliy g'urur tuyg'ulari mustahkam ekanini yana bir bor namoyon etdi.

"Uch avlod uchrashuvi" tadbiri turli avlod vakillarini birlashtirib, o'ziga xos ma'naviy ko'priq vazifasini o'tadi. Bunday kechalar yoshlar uchun katta hayot maktabi hisoblanadi. Chunki ular bu yerda nafaqat tarixiy xotira va tajribani o'rganadi, balki kelajak uchun muhim xulosalar ham chiqaradi. Shuningdek, bu kabi tadbirlar jamiyatimizda hurmat-ehtirom va birdamlik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz taraqqiyoti ko'p jihatdan yosh avlodning bilimli, ma'naviy barkamol va vatanparvar bo'lib voyaga yetishiga bog'liq.

Zero bugungi yoshlarning qalbida jo'sh urayotgan Vatanga bo'lgan muhabbati ertangi kun taraqqiyotining eng ishonchli kafolatidir.

Parvina ABDUHAMIDOVA,
Markaziy harbiy okrug
matbuot xizmati
bosh mutaxassisi



Din – bag'rikenglik va insonparvarlik yo'li

Amir Temur – bu nom tarixda buyuk sarkarda, davlat arbobi va mustahkam iroda sohibi sifatida alohida o'rin tutadi. U o'zining beqiyos jasorati, harbiy mahorati va o'tkir zehni bilan qudratli davlat barpo etgan, parokanda yerlarni birlashtirib, mustahkam davlatchilik asoslarini yaratgan buyuk tarixiy shaxsdir. Temur faqat jang maydonidagi g'alabalari bilan emas, balki davlat boshqaruvidagi adolatli siyosati, qonun ustuvorligiga tayangan boshqaruv tizimi hamda ilm-fan, madaniyat va me'morchilikka ko'rsatgan yuksak e'tibori bilan ham tarix zarvaraqlarida o'chmas iz qoldirgan.



VATANNI SEVMOQ IYMONDANDIR

Islomda Vatanga muhabbat haqida nima deyilgan?

Vatan atamasi aslida arabcha so'z bo'lib, ona yurt ma'nosini anglatadi. Vatan tushunchasi keng ma'noda va tor ma'noda qo'llaniladi. Bir xalq vakillari jamuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, bu keng ma'nodagi tushunchadir. Kishi tug'ilib o'sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutilsa, bu tor ma'nodagi tushunchadir.

Qur'oni karimda "dor" (*ko'pligi "diyor"*) so'zi jami 47 marta takrorlangan bo'lib, u arab tilida Vatan, mamlakat, yer, diyor, yashash manzili kabi ma'nolarni anglatadi. Bu so'zning shunchalar ko'p takrorlanishi ham u ifoda etgan ma'nolarning naqadar muhimligidan dalolat beradi.

Bir insonni o'z Vatani dan badarg'a qilish, majburlab chiqarib yuborish og'ir gunohligi ta'kidlanadi. Payg'ambarimizdan rivoyat qilingan hadisda Madinaga hijrat qilayotganlarida: "Agar qavmim meni Makkadan chiqib ketishga majbur qilmaganida, hech ham o'z ixtiyorim bilan uni tashlab ketmagan bo'lar edim", degan.

Imom Buxoriyning "al-Jomi as-Sahih" to'plamida Vatanni qo'msash, uni sevish haqida keltirilgan bir hadisda shunday deyiladi: "Oisha onamiz raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: "Rasululloh sallallohu alayhi vasallam Madinaga kelganlarida Abu Bakr bilan Bilol isitmalab qolishdi. Men ularning huzuriga kirib: "Ey, padari buzrukvor (*ya'ni Abu Bakr*), ey Bilol, o'zingizni nechuk his etmakdasizlar?" deb so'radim. Abu Bakr isitmadan zo'riqqanda:

"Uyimda bo'lsaydim jon

chiqar mahal,

Poyabzal ipidin yaqindir ajal",

der, Bilol esa isitma biron

pasayganda, yig'lab:

"Ta'qdirim ne erur, bilmasman,

e voh,

Boshimga ajaldan

kelurmu sipoh?

Bir kecha bo'lsa ham,

ona vodiyim,

Qo'ynida yotsaydim, mehribon Alloh!

Qonib ichsam erdim, shaffof suvlarin,

Qaniydi, tashlasam, unga bir nigoh!"

der edilar. Men bu haqda janob Rasululloh (s.a.v)ning huzurlariga borib aytib erdim, ul kishi: "Yo, Alloh! Bizga Madinani Makka singari yoqimli, undan ham ortiqroq mahbub etg'il! Yo, Alloh, uning tosh-u tarozisiga baraka ato etg'il, uni (*ahlini*) hamisha bardam-u sog'lom qil, mana bularning bezgagini esa Juhfaga ko'chirgil!" dedi.

Ko'rinib turibdiki, ikki ulug' sahoba Abu Bakr va Bilol ham Payg'ambarimiz bilan birga "saodat asri"da yashab, kundalik nozil bo'layotgan vahiydan bahramand bo'lishdek baxtga muyassar bo'lsalar-da, o'z Vatani larini sog'inib yashagan.

Ota-bobolarimiz, ulug' ajdodlarimiz va allomalarimiz ham yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor berib, o'z yurtlariga muhabbatni ifoda etish borasida ajoyib namunalar ko'rsatgan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Farg'oni, Muhammad Xorazmiy, Abu Lays Samarqandiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abul Mu'in Nasafiy, Qaffol Shoshiy, Majzub Namangoni kabi buyuk mutafakkirlarimiz o'zlarining taxalluslarini kindik qonlari to'kilgan yurt bilan bog'laganlari, ularning nomini dunyoga ma'lum-u mashhur qilganliklari ham bir ibratdir.

Buyuk shoir va sarkarda, davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti ham Vatanni sevishga yorqin misol bo'la oladi. O'z davrining yirik va qudratli davlatlaridan biri Hindistondan mamlakat hukmdori bo'la turib, bir umr Andijonini, so'lim Farg'onasini, bobokalonlaridan meros Samarqandini qo'msab o'tdi, ijodining salmoqli qismini Vatan sog'inchiga bag'ishladi.

Keltirilgan oyat, hadis va ibratli misollardan ma'lum bo'ladiki, **Vatan**

inson uchun muqaddas, uni hech bir narsa bilan almashtirib bo'lmaydi, u o'z-o'zidan sevilishga, ardoqlanishga va qadrlanishga loyiqdir.

Vatan himoyasi qanday amallardan sanaladi?

Vatan muqaddas dargoh. **Uni himoya qilish, dushmanlardan asrash, ravnaqi va farovonligi yo'lida xizmat qilish har bir musulmon uchun ham farz, ham qarzdur.** Payg'ambarimiz: "Molini, jonini, dinini va ahlini himoya qilish yo'lida halok bo'lgan kishi shahid maqomidadir", deganlar. Hadisda sanab o'tilgan mol, jon, din va oila kishi hayotining mazmuni, uning Vatani ni ifoda etadi.

Shariat manbalarida Vatanni himoya qilish farzi ayn, ya'ni barchaga barobar buyurilgan amal deb belgilab qo'yilgan. Agar dushman bostirib kelsa, ayol kishi o'z eridan, qul o'z xojasidan izn so'rab o'tirmasdan, jangga chiqib ketaverishi mumkin.

Vatan himoyasi muqaddas amallardan ekani, undan yuz o'girish yoki biror bahonani ro'kach qilib, uni himoya qilmaslik og'ir gunoh.

Islom tarixiga nazar soladigan bo'lsak, musulmon muhojirlar Makkadan Madinaga hijrat qilib kelishgach, ansorlar bilan birlashib, islom ummatini tashkil etdi va farovon, osoyishta hayot kechira boshladi. Ularni o'z Vatani dan quvib chiqargan, Makka mushrikklari bu osoyishtalikni ko'ra olmay, hijratning ikkinchi yili Ramazon oyida (*mil. 624-y.*) Madinaga bostirib keldi va ular bilan musulmonlar qo'shini o'rtasida "Badr" jangi bo'lib o'tdi. Bu islom tarixidagi birinchi jang bo'lib, Madinadan 80 mil. (*taxminan 150 km.*) uzoqlikda Suriya karvon yo'lida joylashgan Badr qudug'i yaqinida bo'lgandi. Murosasiz kechgan jang musulmonlar g'alabasi bilan tugadi. Oradan bir yil o'tib (*625-yil 23-martda*), Madina shahri yaqinidagi Uhud tog'ida

musulmonlarning makkaliklar bilan ikkinchi jangi bo'lib o'tdi. Badr jangida makkalik mushrikklari mag'lubiyatga uchragach, musulmonlardan o'ch olmoqchi bo'lishgan edi. Uchinchi jang Xandaq voqeasi bo'lib, hijratning to'rtinchi yili (626-y.) bo'lib o'tdi. Bunda musulmonlar o'z Vatani lari Madinani himoya qilish uchun dushman bostirib kirishi mumkin bo'lgan tarafdin chuqur qilib xandaq qazib chiqdi.

Yuqoridagi janglarda erkaklar bilan bir qatorda ayollar va hatto yosh bolalar ham qatnashgan. Modomiki, Payg'ambar alayhissalom ularni bu ishdan qaytarmagan, balki rag'batlantirgan ekan, demak, **islom ta'limoti bo'yicha Vatan himoyasi muhim va muqaddas burch ekani ma'lum bo'ladi.**

Yurtimiz dovru'g'ini dunyoga taratgan buyuk ajdodlarimizdan, islom olamida keng tarqalgan tasavvuf tariqatlaridan biri kubraviya ta'limoti asoschisi Najmiddin Kubro Vatan himoyachisining yorqin misoli bo'la oladi. Zamonasining yirik allomalaridan, minglab muridlarga ega bo'lgan tariqat pir-murshidi bo'lgan bu shayx Vatani ga mo'g'ullar bosqinidan xabar topib, birinchilardan bo'lib uning himoyasiga otlandi. Najmiddin Kubroning xalq orasidagi obro'-e'tiborini nazarda tutib, mo'g'ullar hukmdori unga shaharni tashlab, o'zi ixtiyor qilgan tarafga ketishni taklif qiladi. O'z jonini saqlab qolish yo'lida Vatani ni yovga topshirishni or bilgan alloma, bosqinchilarga qarshi jangga kiradi va mardlarcha, tug' ko'tarib, lashkarni olg'a chorlab borayotgan holatda shahid bo'ladi. U tug'ni shunchalar jon-jahdi bilan ushlagan ediki, bayroqni uning qo'lini kesibgina ola oldi.

Bunga o'xshash misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

O'zbekiston xalqaro

islom akademiyasi

Ilmiy tadqiqotlar va innovatsion

loyihalar markazi



Meros

AMIR TEMUR SALTANATIDAGI BAYRAM VA TO'YLAR

O'tgan eski mustamlaka tuzum davrida Amir Temur faqat jang-u jadal olib borgan hukmdor sifatida gavdalan tirilar edi, lekin bilamizki, bugungi otabobolarimiz singari bu zot ham to'ylarni, o'g'il-qizlari, nevaralarining xursandchilik kunlarini ko'rishni juda-juda orzu qilgan. Uning va Temuriylar davrida davlat bayramlari haqida ham anchagina ma'lumotlar saqlanib qolgan. Quyidagi qimmatli voqealarning sizga ko'p narsa berishiga shak-shubha yo'q.



To'ylar necha kun davom etgan?

To'ylar 3 kundan 3 oygacha davom etgan. Yetti kun, qirq kun, bir oy davom etgan to'ylar ham bo'lgan. Bu to'ylar harbiy g'alabalar, elchilar, aziz mehmonlar sharafiga uyushtirilgan.

1360-yil. Ulug' maydonda.

Shahrisabzdagi Ulug' maydonda o'tkazilgan to'y. Bu to'y amir Xizr Yassuriy sharafiga uyushtirilgan. U sohibqironning g'animi bo'lgan Bayon Sulduzni Movarounnahrda quvishda yordamlashgan edi.

Amir Husayn sharafiga.

367-yilda Xuroson viloyatining Qunduz shahrida amir Husayn sharafiga katta to'y o'tkaziladi. To'y bir necha kun uzluksiz davom etib, xalq miriqib o'yin-kulgi qilgan.

1388-yil. Uylantirish. Samarqand shahrida o'tkazilgan to'y. Amir Temur o'g'illari – Umarshayx Mirzo, Shohrux Mirzo hamda nevaralari Muhammad Sulton, Pir Muhammad mirzolarni uylantirish munosabati bilan elga bir necha kun osh berdi.

G'alaba to'yi. 1391-yili Qunduzcha degan joyda To'xtamishxon ustidan qozonilgan g'alaba sharafiga ommaviy bayram sifatida nishonlangan. Nozne'matlar oltin idishlarda, oltin jomlarda tortilgan.

1392-yil. Amir Temur bu to'yni nevaralari Rustam va Abu Bakrlarni uylantirish munosabati bilan uyushtiradi.

1396-yil. Hukmdorni kutib olish.

Xalq safardan qaytgan Amir Temurni munosib kutib olgan: Shahrisabz va Samarqand shaharlari rang-barang bezatilgan, ko'chalarga turli qimmatbaho gilamlar osilib, har bir hunarmand o'z iste'dodini namoyish etgan, ustalar bir-biridan chiroyli ko'shklar, chortoqlar qurishgan, ularda hofizlar eng jozibali, eng jo'shqin ovozlarda kuylashgan.

1404-yil. Konigildagi

tomoshalar. Amir Temur Samarqandda

besh nafar nevarasini uylantirdi. Ular orasida Mirzo Ulug'bek ham bor edi. Konigilda bir necha o'n kun katta bazm, to'y bo'lib, unda butun aholi, mehmonlar, elchilar, savdogarlar, eng mohir san'atkorlar ishtirok etishgan. **Ibn Arabshoh yozadiki**, "Hatto bir bo'yrachi mukammal qurol-yaroqli bir otliqni yasab chiqardiki, tirnoqlari-yu, kipriklarini, yoy, qilich va boshqa taalluqli narsalarining daqiq usulida kamoliga yetkazib yasadi". **Yana Ibn Arabshohning yozishicha**, xalq o'yin-kulgi jannatiga tushgan va bunday ulug'vorlikni qadimgi xonlar, podshohlar, hatto al-Ma'mun ham ko'rmagan edi. Xalq Amir Temurni e'zozlab, "ota" deb atar edi va unga har kimning ixlosi baland edi, chunki sohibqiron Temurning o'zi ham xalqini sevar va uning uchun jonini berishga tayyor edi. Uning ko'shkini hunarmandlar, zargarlar eng noyob va qimmatbaho nodir toshlar shodalari bilan bezagan edi. Hatto boshidagi kulohi ham eng sara dur-u javohirlar bilan ziynatlanganini Ibn Arabshoh havas bilan tasvirlaydiki, bu ham xalqning o'z hukmdoriga bo'lgan izzat-hurmatini ko'rsatadi. Xalqqa ozodlik va shodlik, xotirjamlik va farovonlik olib kelgan hukmdorni kim sevmaydi, deysiz.

Tanbehdan xulosa. Amir Temur shunday hikoya qiladi:

"Qo'l ostimizdagi mamlakatlar raiyati jam bo'lganda, Samarqandda katta to'y-u tomoshalar berdik. Odamlar ko'p kunlar to'kin dasturxon atrofida bo'lishib, to'yguncha yeb-ichishdi. Ziyofatga kelganlarning barisi shodumon erdi. Ziyofatlar tugadi. Kelganlarni yanada xursand etmoq niyatida har mehmonga bir boshdan histori qo'y tuhfa etmoqni buyurdim. Bakovullar har kishiga qo'y tutqazib, jo'nataverishdi. Bexos xayol oldi: mehmonlarim rostdanda mamnunmikin? Ust-boshimni

o'zgartirib, ziyofatdan qaytayotgan odamlar to'dasiga kirdim. Yo'lda odamlar kuymanishar, dala-dashtda o'sgan qo'ylarni sudrab, uddasidan chiqolmas erdi. Ayniqsa, besh-olti pudli histori qo'chqorni yetaklab olgan kishi qo'yni harchand tortmasin, o'rnidan qo'zg'atolmas erdi. Shunda ul kishi tutoqib dedi: "Qo'yni-ku, berishga berding, bir quloq arqonni qizg'anib nima qilarding. Bir quloq arqon bilan boyib qolarmiding, ey podshohi ziqna!" Bu kishini fikriga qo'shilganlar bo'ldi. Shunda el ko'nglini, odamlar ko'nglini olmoq naqadar mushkul ekanini angladim. Keyin ushbu saboqdin xulosa olib, nuqsonlarga aslo yo'l qo'ymaslik tadbirini ko'rdim".

Amir Temur ana shunday zot:

shuncha to'y bergan kishi kechasi uyda oyog'ini uzatib yotishi mumkin edi, ammo shuncha yaxshilik qilib ham u yana xalqining ko'nglini bilishga intildi. Bu hammaning ham qo'lidan kelmaydigan ish.

Hukmdor raqsga tushgan.

"To'yingni ko'ray, to'yingda o'ynay" degan gap bor biz o'zbeklarda. Bu juda yaxshi niyat. Amir Temur ham shu elning farzandi edi, u ham orzumand inson edi. Ibn Arabshoh chang, ud, urg'un, g'ijjak, nay navolari yangrab, ashula avj olib, raqqoslar o'yinga tushib, nihoyat o'yin-kulgi, xursandchilik Amir Temurni to'lqinlantirib yuborganini va hukmdorning qariligiga qaramay, o'yinga tushganini yozadi. Hozir ham to'yda davra o'yinini mo'ysafidlar, oqsoqollar boshlab berishadi, aftidan, Amir Temur ham bu tamoyilga amal qilgan. Ibn Arabshoh o'sha kuni "...Amir Temur boshidan javohirlar, marvaridlar, kumush va tillolar, turli-tuman nafis, qimmatbaho ashyolar sochdilar", deb yozgan.

Teatr o'yinlari. Amir Temur zamonida teatrlashtirilgan tomoshalar ham ko'rsatilgan. Bu bizning teatr kecha paydo bo'lgan, degan soxta qarashlarni rad etadi. Masalan, Ali Yazdiyning yozishicha, qassoblar va mo'ynado'zlar tomonidan tayyorlangan turli niqoblarni kiyib olgan kishilar ommaviy tomoshalar ko'rsatishgan. Ular xalqning ko'z o'ngida uy hayvonlari va hatto fillar qiyofalarida turli teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlarini namoyish etgan.

Arqon eshuvchilar yog'och, qamish va paloslardan bir nechta "tuya" yasagan. Ularni kiyib olgan qiziqchilar turli nag'malar ko'rsatib, xalqning shodligiga shodlik qo'shgan. Paxta va qamishdan osmono'par minora yasab, tepa qismiga laylak o'rnatgan. Bunisi g'oyat qizig'-a? Charmgarlar yasagan tuyalarga o'rnatilgan taxtiravonlarda go'zal raqqosalar xirom aylab turgan.

Kulgi teatri. Hayotda hamma narsaning asosi bo'ladi, chunki barcha davrlarda ham inson orzu bilan yashaydi, mehnat qilib, dam oladi, latifalar to'qib,

kuldiradi, kuladi, turli o'yinlar bilan vaqtini chog'lab, hayotiga mazmun kiritishga intiladi.

Amir Temur va Temuriylar davrida ham masxaralar (*masxaraboz emas*), muqallidlar, badihago'ylar o'zlarining noyob iqtidori bilan xalqqa xizmat qildilar, zero aynan shu toifa "Kulgi teatri" asoschilari, desak yanglishmaymiz.

Qo'g'irchoq o'yini. Qo'g'irchoqlar iplar yordamida harakatga keltirilgan, uni boshqarib turgan qo'g'irchoqboz ovoz berardi. O'sha paytlarda "Chodir jamol", "Fonus xayol" qo'g'irchoq o'yinlari mashhur bo'lgan.

Qo'g'irchoq o'yinini tomosha qilgan mashhur so'z ustasi Husayn Voiz Koshfiy shunday yozgan:

"Bir lahv hangomasida hozir bo'ldim, boshiga chodir tortib va undan ikki surat (*qo'g'irchoq*) ko'rsatib o'tirgan kimsani ko'rdim. U gohi erkak ovozi bilan bir surat tilida savol berardi, gohi boshqa surat tilida qizning ingichka va nozik ovozi bilan javob berardi".

Hozirgi o'zbek qo'g'irchoq teatri ana o'sha zamindan yetishib chiqqan, desak bo'ladi.

Xalq sirki. O'tgan yili xitoylik sirkchi qizning ilondek tovlanishini ko'rganlar: "Buning suyagi yo'qmi, nima balo?!" deya hayron qolishdi. Bunday besuyaklar Amir Temur va Temuriylar davrida ham tomoshalar ko'rsatishgan. Bundan tashqari, dorbozlar, olov purkovchilar, xanjar yutuvchilar, likopcha o'ynatuvchilar, yog'och oyoqda o'ynovchilar, muallaqchilar, chambardan sakrovchilar, ot va uy hayvonlari bilan tomosha ko'rsatuvchilar ham xalq sirkining ajralmas qismini tashkil etgan.

Xullas, o'zbek sirkining ildizi qadimga borib taqaladiki, buni bilib qo'yishimiz kerak.

To'lovlardan ozod etish. Turli bayramlar va to'y-hashamlar paytida Amir Temur Samarqand ahlini har xil og'ir to'lovlardan ozod etib turgan. Demak, u zot raiyatning yuzidagi tabassumga ham o'zini mas'ul hisoblagan.

Chavgon o'yini. XV-XVI asr miniatyuralarida chavgon o'yini juda yorqin ranglarda aks etirilgan: ularning hammasida yashil maydonda, ot ustida berilib chavgon o'ynayotgan aslzoda yigitlar tasvirlangan. Tarixdan ma'lumki, Sharqda tashkil topgan ana shu o'yin tufayli G'arbda xokkey o'yini ommalashgan edi. Lekin xalqimiz bugun chavgon o'yini haqida kam biladi. Shu mavzuni chuqur o'rganib, kengroq yoritib bergan kishiga ming rahmat aytgan bo'lardik.

To'lqin HAYIT,
adib,

O'z FA Temuriylar
tarixi davlat muzeyi
katta ilmiy xodimi



Bayram madhi

TASHRIFING MUBORAK, YANGI KUN – NAVRO‘Z!

KO‘KLAM NAVOSI

Boboquyosh mehr ila nurin sochar,
Momo yerim uyg‘onadi shukronada.
Boychechaklar qor ostidan ko‘zin ochar,
Maysa unar yomg‘ir chertgan taronada.

Bahor sehri har xilqatga bag‘ishlar jon,
Jonlanadi ming asrlik tog‘- u toshlar,
Jonlanadi cho‘l- u sahro, yer- u osmon,
Hassos Navro‘z yangilanish kuyin boshlar.

Naqarot:

Navbahorning etaklarin o‘par yalpiz,
Chuchmoma-yu qizg‘aldoqlar misli zardo‘z,
Bor nafasat, bor husnini aylab ko‘z-ko‘z,
Navro‘z kelar, ona yurtga kelar Navro‘z.

Yam-yashil qir-adirlarga to‘ladi xalq,
Bo‘y ko‘rsatar qadriyat- u an‘analar.
Har yurakda orzu-umid, o‘zgacha zavq,
Boshlanadi o‘yin-kulgi, tantanalar.

Sumalakning xush bo‘yiga to‘lar borliq,
Ko‘ksomsa-yu halim kelar dasturxonga.
Navro‘zoyim bor ne‘matin etar tortiq,
Duo yangrar: ko‘z tegmasin, hur makonga...



MEHR-U MURUVVATLI FASLIMSAN, NAVRO‘Z!

Zamin beshigini tebratar ko‘klam,
Hayotbaxsh qo‘shig‘in kuylaydi bahor,
Navro‘z tashrifiga intizor bu dam,
Borliq sepin yoygan kelinchak misol,
Sirlig-u sehrli faslimsan, Navro‘z,
Dunyolarga bo‘ylar faxrimsan, Navro‘z!

Shodlikka yo‘g‘rilgan poyqadamingdan,
Asriy udumlarim qaytar ohorli.
Momolarim boshlar aytishuv, o‘lan,
Sumalak qaynaydi mushk-anbarli,
O‘zligim unutmaz faslimsan, Navro‘z,
Qadimdan asralgan aslimsan, Navro‘z!

Keksalar e‘zozda, duoda qo‘llar,
Ezgu niyatlarga to‘la har yurak.
Bir-birin qo‘llaydi do‘st- u birodar,
Xayr- u saxovatga tayyor har bilak,
Mehr- u muruvvatli faslimsan, Navro‘z,
Elim ulug‘lagan qadrimsan, Navro‘z!

BAHOR NAVOSI

Tabiat taxtiga dillardagi zor –
Navbahor Oybeka bo‘lib saylandi.
Uchmoqqa shaylangan oqqushlar misol,
Bodamlar oq sadaf gulga aylandi.

Ko‘klam malikasi kezar dala-bog‘,
Ortida qoldirib yalpizli izlar.
Qutlug‘ dargohiga chopishar bu chog‘,
Boshida gulsavat qoqigul qizlar.

Navbahor tavsifin ash‘orda kuylab,
Tog‘lardan yo‘l olar shoir irmoqlar.
Bastakor bulbullar navosi tunlab,
Gullar ko‘ksidagi rozni so‘roqlar.

Tabarruk momolar tabarruk taom –
Sumalak solishar doshqozonlarga.
Ortida mo‘l hosil sovg‘ayi salom,
Navro‘z kirib kelar xonadonlarga.

NAVRO‘ZINGGA SHUKRONA

Yurtim uzra keldi ko‘klam, keldi Navro‘z,
Borliq go‘zal, nigohlar cho‘g‘ orzular mo‘l,
Bu ezgulik timsoliga topilmas so‘z,
Shukrona deb duolarga ochamiz qo‘l.

Qadim-qadim qadriyatlar qaytar yana,
Omon-omon davronlardan ko‘ngillar to‘q,
Bog‘i rog‘- u maydonlarda to‘y-tantana,
Ko‘kka yetgan keksalarning armoni yo‘q.

Tandirlardan uziladi ko‘ksomsalar,
Sumalaklar anbar hidi tutar borliq,
Do‘st- u yor deb keng ochilar darvozalar,
Muruvvatli ona xalqim bag‘ri ulug‘.

Keksa-yu yosh tilak qilar qalbda surur, –
Butun qilgan rizq-ro‘zingga shukrona,
Elim uzra har yurakka taratgan nur –
Yangi kuning – Navro‘zingga shukrona

Gullar iforiga cho‘milar zamin,
Bulbul chala boshlar sehrli nayin,
Vasfingni sabolar kuylaydi mayin,
Tashrifing muborak, Yangi kun – Navro‘z.

Borliq orzusida yasharish, yashash,
Ilohiy muhabbat bag‘riga tutash,
Sening marhamating bu mehri otash,
Tashrifing muborak, Yangi kun – Navro‘z.

Zamin bu murodbaxsh mehrdan sarmast,
Tabiat entikib oladi nafas,
Qushlar g‘ujg‘onida mushoira, bahs,
Tashrifing muborak, Yangi kun – Navro‘z.

Bahribayt yog‘ilar zaminga bu chog‘,
Qumri xonishiga to‘lar qir- u bog‘,
Shukrona o‘qiydi, ko‘z ochgan buloq,
Tashrifing muborak, Yangi kun – Navro‘z.

Har jonga rizq unar uning poyida,
Malaklar yashirin ol chiroyida,
Jilg‘alar mast oqar vasli ko‘yida,
Tashrifing muborak, Yangi kun – Navro‘z.

Zulfiya YUNUSOVA,
“Vatanparvar”



Qadriyat

"KUNLAR YORUG', TINCH BO'LSIN..."

Ko'klamning yomg'ir ko'p yog'adigan namxush oqshomlari bolaligimizda juda zerikarli tuyulardi. Tashqarida shamol "uv" tortar, daraxtlarning shoxi qarsillar, itlar zanjirini uzgudek bo'lib tinmay hurar edi.

Bu tovushlardan vahimaga tushib, enamizni savolga tutardik:

– Tashqarida nima bo'lyapti?
– Ayamajuz kelgan-da, bolam!
– Ayamajuz yomonmi?
– Yomon emas-u, lekin rahm qilmaydi-da, – derdi enam. – Kechagina bog'imizdagi zardolilar gulini to'kib, barg chiqargandi. Mana, ayamajuz barglarini bitta-bitta yulib otyapti. Fe'li shunaqa-da.

"Hut keladi, hademay, ishqilib yaxshi kelsin-da", der edi keksalar, ba'zan bir-birovlari bilan o'zaro suhbatlashayotib. Uning ham aytimlari bor edi.

*Yaxshi kelgan hutni ko'ring,
Paqir to'la sutni ko'ring.
Yomon kelgan hutni ko'ring,
Keragada go'shtni ko'ring.
Kunlar yorug' bo'lsin-ey...
Tinch va qutli kelsin-ey...*

Aytishlaricha, hut yaxshi kelsa, ko'kalamzor ko'payib, sigirlar yaxshi sut beradi, yomon kelsa, sel-jala tinmay, mol-qo'ylarning ba'zi birlari suvda oqar yo bo'lmasa, jalada toyib yiqilgan qo'ylar so'yilib, keragaga (*sim ilgak*) osilarkan.

Yana bir kuni qattiq shamol turdi. Yomg'ir tomchilari derazani cherta boshladi. Birdaniga chiroq ham "lip" etib o'chib qoldi. Ukam bilan bobomning yoniga chopib bordik.

– Hozir hammamiz birga qo'shiq aytamiz, keyin sirayam qo'rqmaydigan bo'lasizlar, – dedi bobom. O'sha qo'shiqning so'zlari hali-hali yodimda.

*Shamol tursa, qo'rqmagin,
Shamol bobong bo'ladi.
Yomg'ir yog'sa, qo'rqmagin,
Yomg'ir momong bo'ladi.
Chaqmoq chaqsa, cho'chima,
Chaqmoq sening og'angdir.
Sel kelganda sapchima,
U ham sening bobongdir.*

Chindan ham shundan so'ng qo'rquv hissi yo'qoldi. Go'yoki, bobom birzumdayoq tabiat bilan bizni do'stlashtirib qo'ygandi. Yomg'irning

ham, shamolning ham tovushi endi bizga xush yoqib, ko'zimizni uyqu elita boshladi.

Ertasiga havo charaqlab ochildi. Bir haftagacha kun toza qizidi. Shunda bobom bizga "Qani, yomg'ir chaqiringlar", dedi. Biz kattalardan o'rganganlarimizni xirgoyi qildik:

*Dehqon bobo huv dedi,
Dala-bog'ga suv, dedi.
Guldurak momo, kel-ey.
Tog'-daradan oshib o't,
Dala-bog'dan shoshib o't,
Guldurak momo kel-ey...*

Aytishlaricha, shoh Firuz zamonida Eronda yetti yil yomg'ir yog'magan ekan. Shunda el-ulus ibodatxonalarga borib, g'ayb kuchlardan yomg'ir so'ragan.

Yil qurg'oq kelib, hosil kam bo'lgan yillarda odamlar go'yoki suv homiysi bo'lgan Sulton xotindan madad tilashsa, yomg'ir yuborarmish. O'sha kezlarda biz bolalar cho'pga o'rab yasalgan latta qo'g'irchoqni bosh uzra ko'tarib, qo'shiq xirgoyi qilardik:

*Yomgir yog'dir, ho'l bo'laylik,
Biz ham senga jo'r bo'laylik.
Arpa-bug'doy mo'l bo'lsin,
Sut-u qattiq ko'p bo'lsin.
Yomgir yog'dir, ho'l bo'laylik...*

Biz Navro'z sayillariga chiqib, varrak uchirayotgan kezlrimizda ham bor ovozimiz bilan shamolni chaqirardik:

*Shamol, shamol,
Bag'ring kamol,
Onangni suv olib ketdi,
Otangni suv olib ketdi,
Bolangni suv olib ketdi.
Esa qol-ey!*

Navro'z kunlarida yer haydash, ekin ekish yumushlarini bajarish paytida dehqonlar "Xo'sh, hayda", "Mayda-mayda" qo'shiqlarini aytgan

bo'lsalar, ayollar sigirlarini erkalab sutini ko'paytirish uchun qo'shiq aytib sog'ardilar. Sog'im qo'shiqlarini onalarimiz va momolarimiz o'zlari to'qib ham xirgoyi qilaverishardi.

Qishdan chiqib, quvvatsizlangan sigirlar ko'klamning ilk maysalariga to'yib qaytayotganida ayollar shu jonivorlarni suqli nazarlardan ehtiyotlagan. Ko'z tegmasin, deya shoxlari va tuyoqlariga nuqra toshchalar taqib qo'yganlar. So'ng podadan qaytayotgan sigirlar yo'lga chiqib, o'zaro xirgoyi qilishgan.

*Poda kelar bosh-bosh,
Shoxlarida nuqra tosh.
Yelini tirsillaydi,
Shoxlari qirsillaydi.
Poda kelar bosh-bosh...*

Har gal Navro'z kunlarida biz ona tabiat, osmon, xullas atrofimizdagi barcha jonivorlar bilan mana shunday sodda va xalqona qo'shiqlar orqali so'zlashardik, ularni bola qalbimiz bilan yaxshi ko'rib qolardik.

Bolalik kezlarda dala giyohlarining qay birini gulidan, qay birini hididan ajratib olardik. Suvqalampirning gullari xuddi marjonga o'xshash bo'lardi. Bo'znochning gullari sap-sariq, marvaridgul esa qo'ng'iroqchani eslatardi. Dalachoy va moychechakning gulbarglari suluv, gulxayrining ifori mayin, devonagulning tovlanishi chiroyli edi. Yomg'ir sevalab o'tgan chog'larda bu o't-o'lanlarning xush bo'yi butun borliqqa taralardi.

"Ko'katlarning isi ko'nglingni ochadi, ko'kalamzor ustidagi shudringdan olib ich, barcha dardlaring ketadi", deyishardi keksalar. Maysalarga bo'ylashib, ular bilan joy talashib o'sayotgan yalpiz, ismaloq, jag'-jag', beda ham yuz bir dardga davo ekan.

Tuproqni yorib, yashashga chog'lanayotgan maysalar, ariq bo'ylaridagi mitti chuchmomalar, qirda boychechag-u binafshalar,

bog'lar ichida sayrayotgan qushlarning hamma-hammasi Navro'z saharlarida qutlug' kunni qarshilayotganday tuyuladi. Noziknihol gul-u giyohlar hidi dimoqni qitiqlaydi. Sumalak qozonlari atrofida sho'x bolalar chug'urlashadi:

*Armon, armon sumalak,
Jonga darmon sumalak.*

Adirlar bag'rida Navro'z gurunglari qiziydi, aytishuv va laparlar boshlanadi, bellashuvlar avj oladi. "Qutlug' kunda g'amga botmay o'ynab kul, faqat yaxshi niyatlar qilsang, kelgusi Navro'zlargam ham shod-u xurram yetasan!" degan hikmatlar qadimdan qolgan.

Momo chanqovuzni labiga tutadi. Bobo do'mbirani sayratadi. Bolakay qamishdan sibiziq yasaydi. Katta maydondan otlar dupuri eshitaladi. Barcha "qizquvdi"ni ko'rmoqqa shoshiladi. Bir tomonda kurash davom etadi. "Ol, ha ol!", "Halol, halol!" deya davra guvullaydi. Yana bir yoqda arqon tortishlar... Bellashuvlar tugab, hammalari kelinsalom bo'layotgan joyga oshiqadilar. Kayvoni momo o'rta qay chiqib salom aytadi:

*Xirmonlar donga to'lsin,
Dasturxon nonga to'lsin,
Yurt tinch, el omon bo'lsin,
Hamma-hammaga salom...*

Kelinchaklar zarrin harir pardalari ortidan nim tabassum qilib, birmabir salomga egiladi.

Navro'zi ayyomi tomoshalari to kechga qadar davom etadi. Shu asnoda mehr dillarni bir-biriga bog'laydi, chehralar oftobdek yorishadi, ko'zlar kulib ko'ngillar yayraydi, vujudlar kuch-quvvatga to'lib, ertangi xayrli va savob ishlarga chog'lanadilar.

**Gulchehra JAMILOVA,
O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan jurnalist**



Chegara qo'shinlarida



Vatanni himoya qilish, uning finchligi va osoyishtaligi uchun har narsaga tayyor turish – bu har bir er yigit uchun katta mas'uliyat va burch. Ayni damda Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlariga qarashli o'quv punktlarida ana shunday sharaflari vazifani bajarishga bel bog'lagan muddatli harbiy xizmatchilarga yurt sarhadlarini ishonchli va mustahkam qo'riqlash borasida boshlang'ich harbiy bilim va ko'nikmalar berilmoqda.

O'QUV PUNKTLARIDAGI QIZG'IN MASHG'ULOTLAR...

Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand Buxoro va Namangan viloyatlarida malakali ofitser va serjantlar tomonidan mashg'ulotlar jarayonida bo'lg'usi askarlarning Umumharbiy nizomlar talablari, safda turish va harakatlanish qoidalari, davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilishda qo'llaniladigan qurol-aslahalar hamda harbiy texnikalardan foydalana olish yuzasidan bilim va ko'nikmalari oshirilmoqda.

Bekobod tumanida esa chaqiriluvchilar ishtirokida "Hokim va yoshlar uchrashuvi" tashkil etilib, unda Bekobod shahri hokimi Nasrulla Boboyev hamda tuman hokimi Zaynilobiddin Nizomiddinov ishtirok etdi. Vatanparvarlik va fidoyilik tuyg'ularining sharaflari hamda mas'uliyati xususida so'z borgan ushbu tadbir davomida bugun davlatimiz rahbari, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan chegaradosh davlatlar bilan olib borilayotgan faol, ochiq va pragmatik tashqi siyosat, yo'lga qo'yilayotgan o'zaro do'stlik hamda yaqin qo'shnichilik aloqalarining mazmun-mohiyati va mazkur jarayonlarning sarhadlarimiz

daxlsizligini ta'minlashdagi muhim ahamiyati xususida yoshlarga zarur tushunchalar berildi.

Shundan so'ng Davlat chegarasi qo'riqlashda qo'llanilayotgan qurol-aslahalar va harbiy texnikalar ko'rgazmasi tashkil etilib, yig'ilganlar ularning imkoniyatlari bilan yaqindan tanishdi. Tadbirning badiiy qismida Bekobod shahri Madaniyat uyi xonandalari tomonidan ijro etilgan vatanparvarlik, yurtga sadoqatni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar ham barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Farg'ona va Surxondaryo viloyatlaridagi o'quv punktlarida chaqiriluvchilar bilan psixologik treninglar tashkil etilib, mazkur jarayonda ularning xizmat sharoitlariga moslashuvi, jamoada o'zaro hamkorlikni oshirish, stressli vaziyatlarni yengib o'tish hamda ruhiy barqarorlikni mustahkamlash borasidagi tushunchalari shakllantirildi, shuningdek turli psixologik mashqlar va suhbatlar orqali fikr-mulohazalari tinglandi. Bilish, diqqat va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan ushbu mashg'ulotlar askarlarni jamoa bo'lib, birdamlikda harakatlanishga o'rgatgan bo'lsa, "Soyabon va tayoqcha", "Kenguru", "Olma va



olcha" kabi kayfiyatni ko'taruvchi mashqlar ular katta qiziqish uyg'otdi.

Ma'lumki, kuy va qo'shiq inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega. Qadimdan jangchilarning kayfiyatini ko'tarish, ularning jangovarligini oshirish uchun qo'shiqlardan keng foydalanishgan.

Ayni shu maqsadda Sirdaryo va Farg'ona viloyatlaridagi harbiy qismlarda o'z yigitlik burchini o'tash uchun kelgan yoshlarga Yangiyer va Quvasoy shahri Madaniyat uyi xodimlari tomonidan konsert dasturlari

namoyish etildi. Barchaga birdek ko'tarinki kayfiyat ulashgan ushbu tadbirlar chaqiriluvchilarning madaniy hordiq chiqarishni samarali tashkil etishga xizmat qildi.

Shu kabi o'quv-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy-hordiq chiqarish tadbirlari butun respublikamiz bo'ylab DXX Chegara qo'shinlariga qarashli o'quv punktlarida qizg'in davom etmoqda.

Mayor
Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari



Jasorat maktabi

VATANGA SADOQAT TUYG'USI

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish hamda Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yangi O'zbekiston taraqqiyoti aynan bilimli, jasur, fidoyi va vatanparvar yoshlar bilan chambarchas bog'liq. Shu bois yoshlarning qalbida ona Vatanga muhabbat, milliy g'urur va mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli loyihalar amalga oshirilmoqda.



Ayniqsa, yosh avlodni harbiy xizmatga tayyorlash, ularni jismonan chiniqtirish, ma'naviy jihatdan barkamol etib tarbiyalash masalalari alohida e'tibor markazida turibdi. Bu borada o'tkazilayotgan turli o'quv yig'inlari, vatanparvarlik tadbirlari va ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar yoshlar uchun muhim tarbiya maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.

Jizzax viloyatida yoshlar uchun "Jasorat maktabi" o'quv yig'inining joriy yildagi ilk mavsumi tashkil etildi. Jizzax garnizonidagi harbiy qismda o'tkazilgan ushbu 10 kunlik o'quv yig'inini yoshlar hayotida unutilmas tajriba va haqiqiy sinov maktabiga aylandi.

Mazkur loyiha yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning jismoniy chiniqishini ta'minlash hamda zamonaviy kasb-hunarlar bo'yicha yo'naltirish maqsadida tashkil etildi. Yig'in yoshlar siyosatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hamkorligida o'tkazilib, unda viloyatning turli hududlaridan

saralab olingan 100 nafar faol yosh ishtirok etdi.

Yig'in davomida yoshlar harbiy tartib-intizom asosida yashadi. Har bir kun aniq reja asosida tashkil etilib, mashg'ulotlar ertalabki saf tortish marosimidan boshlandi. Harbiy muhitda o'tgan ushbu kunlar yoshlarning hayotiy qarashlarini kengaytirib, ularda intizom, mas'uliyat, jamoaviylik va fidoyilik kabi muhim fazilatlarini shakllantirishga xizmat qildi.

"Jasorat maktabi" o'quv yig'inining asosiy yo'nalishlaridan biri yoshlarning jismoniy chiniqishini ta'minlashdan iborat bo'ldi. Shu bois dastur doirasida turli sport musobaqalari va harbiy-amaliy mashg'ulotlar tashkil etildi.

Xususan, yig'in ishtirokchilari o'rtaida kurash bo'yicha musobaqalar o'tkazildi. Ushbu bellashuvlar yoshlarning jismoniy tayyorgarligini sinovdan o'tkazish bilan birga, ularda matonat, iroda va g'alabaga bo'lgan ishonchni

mustahkamladi. Shuningdek, sportning "Harbiy estafeta" yo'nalishi bo'yicha qiziqarli va shiddatli musobaqalar tashkil etildi. Bu musobaqalarda yoshlar jamoa bo'lib harakat qilish, tezkorlik, epcchillik hamda muvofiqlashtirilgan harakatlarni namoyish etish imkoniga ega bo'ldi.

"Jasorat maktabi" faqat harbiy tayyorgarlik bilan cheklanib qolmadi. Yig'in dasturiga yoshlarni kelajak kasbini tanlashga yo'naltiruvchi mashg'ulotlar ham kiritildi.

Malakali mutaxassislar tomonidan ishtirokchilar uchun tadbirkorlik faoliyatini boshlash va rivojlantirish bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tashkil etildi. Unda yoshlar biznes faoliyatining asosiy tamoyillari, bozor iqtisodiyoti sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish yo'llari bilan tanishtirildi.

Bundan tashqari, IT texnologiyalari bo'yicha ham maxsus darslar o'tkazildi. Zamonaviy texnologiyalar bugungi taraqqiyotning muhim omili ekani ta'kidlanib, yoshlarning ushbu sohada bilimlarini oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish yo'nalishi bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil etildi. Bu mashg'ulotlar davomida yoshlar avtomobil texnikasining ishlash tamoyillari, ularni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bo'yicha dastlabki bilimlarni egalladi. Yig'in davomida "Biznes reja tuzish va tadbirkorlik faoliyatini yuritish" mavzusida ham alohida o'quv darsi tashkil etilib, mutaxassislar yoshlarni tadbirkorlik faoliyatining muhim jihatlari bilan tanishtirdi.

O'quv yig'inini doirasida yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitishga qaratilgan tadbirlar ham tashkil etildi.

"Vatan uchun xizmat – eng oliy baxt" shiori ostida uch avlod uchrashuvi o'tkazildi. Ushbu uchrashuvda faxriylar, harbiy xizmatchilar hamda yoshlar bir davrada jam bo'lib, samimiy muloqot qildi. Faxriylar o'z hayotiy tajribasi, xizmat faoliyati va boshdan o'tgan voqealar haqida so'zlab berdi.

Bunday uchrashuvlar yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat va ajdodlar merosiga sadoqat tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yana bir muhim tadbir – "Chempion va yoshlar" nomli motivatsion uchrashuv tashkil etildi. Unda sport sohasida yuksak natijalarga erishgan sportchilar yoshlar bilan uchrashdi. Uchrashuv davomida sportchilar o'z hayot yo'llari, erishgan yutuqlari hamda sport orqali muvaffaqiyatga erishish sirlarini yoshlar bilan baham ko'rdi.

Yig'in davomida rahbar va yoshlar uchrashuvi ham tashkil etildi. Uchrashuvda harbiy soha vakillari, ofitserlar hamda mas'ul rahbarlar ishtirok etib, yoshlar bilan samimiy suhbat olib bordi. Ushbu tadbir ochiq muloqot shaklida o'tkazilib, yoshlar o'z fikr-mulohazalari, taklif va tashabbuslarini bildirish imkoniyatiga ega bo'ldi.

O'n kun davom etgan o'quv yig'inini yakunida "Jasorat maktabi"ning tantanali yopilish marosimi bo'lib o'tdi. Tadbir ko'tarinki ruhda o'tkazilib, unda yig'in davomida faol ishtirok etgan yoshlar taqdirlandi.

Ishtirokchilarga esdalik sovg'alari, sertifikatlar hamda tashakkurnomalar topshirildi.

Parvina ABDUHAMIDOVA,
Markaziy harbiy okrug matbuot
xizmati bosh mutaxassisi



Harbiy jang san'ati

AMIR TEMURNING HARBIY STRATEGIYASI VA UNING ZAMONAVIY HARBIY SAN'ATDAGI AHAMIYATI

Jahon tarixida buyuk sarkardalar ko'p bo'lgan. Ammo ular orasida o'zining yuksak harbiy iste'dodi, davlatchilik tajribasi va strategik fikrlashi bilan alohida o'rin egallagan shaxslardan biri Amir Temurdir. XIV asrda u Markaziy Osiyoda qudratli davlat barpo etib, katta hududlarni o'z ichiga olgan davlatni boshqardi.



Amir Temur nafaqat buyuk davlat arbobi, balki jahon harbiy san'ati taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan sarkarda sifatida ham tarixda qolgan. Uning jang strategiyasi, qo'shin boshqarish tizimi va harbiy taktikalari bugungi kungacha harbiy tarixchilar va mutaxassislar tomonidan o'rganib kelinmoqda.

Temurning mashhur shiori – **“Kuch adolatdadir”** bo'lib, bu g'oya davlat boshqaruvida ham, harbiy siyosatda ham asosiy tamoyillardan biri hisoblangan. Ushbu g'oya uning harbiy tizimi va siyosiy faoliyatida muhim o'rin tutgan.

Amir Temur harbiy san'atining asosiy tamoyillaridan biri – bu **strategik rejalashtirish va oldindan tayyorgarlik** bo'lib, u har bir yurishga oldindan puxta tayyorgarlik ko'rgan. Jangdan avval raqibning kuchini, geografik sharoitni va qo'shinlar imkoniyatlarini sinchkovlik bilan tahlil qilgan. Tahlil qilish jarayonida dushman haqida razvedka ma'lumotlarini to'plash, qo'shinlarning joylashuvini puxta o'rganish, jang maydonining geografik sharoitlari va unga ob-havoning ta'sirini hamda qo'shinlarning harakat yo'nalishini aniq belgilab berish ishlarini shaxsan amalga oshirgan. Bu usullar zamonaviy harbiy

strategiyada ham muhim ahamiyatga ega. Hozirgi armiyalarda ham har qanday jang, jangovar harakatlar oldindan rejalashtirish va tahlil asosida amalga oshiriladi.

Amir Temur harbiy san'atining tamoyillaridan yana biri – **qo'shinlarni samarali tashkil etish** bo'lib, uning armiyasi qat'iy tartib asosida tashkil etilgan. Qo'shinlar bir necha qismlarga bo'lingan bo'lib, har bir qismi aniq vazifani bajargan. Qo'shin tuzilishida odatda: markaziy qo'shin, chap qanot, o'ng qanot, zaxira kuchlardan tashkil topgan. Bu tuzilish jang vaqtida qo'shinlarni samarali boshqarish va tez qaror qabul qilish imkonini bergan.

Amir Temur armiyasining eng katta ustunliklaridan biri, uning **manyovrchanligi va harakatchanligi** edi. Uning qo'shinlari qisqa vaqt ichida katta masofalarni bosib o'ta olgan. Bu esa: dushmanga kutilmagan joydan hujum qilish, raqibni chalg'itish, jang tashabbusini qo'lga olish imkonini bergan. Manyovr strategiyasi hozirgi zamonaviy harbiy amaliyotda ham muhim o'rin tutadi.

Amir Temur janglarni tashkil etish va olib borishda, yana bir asosiy tamoyillardan biri – **razvedka va axborotning** ahamiyatini juda muhim

deb bilgan. Shu sababli u razvedkaga katta e'tibor qaratgan. **Razvedka quyidagi vazifalarni bajargan:** dushman qo'shinlari sonini aniqlash, ularning joylashuvini o'rganish, jangga tayyorgarlik darajasini baholash ma'lumotlari asosida Temur jang strategiyasini belgilagan.

Amir Temur armiyasida **qattiq intizom** o'rnatilgan. Uning fikricha, intizomsiz armiya hech qachon muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Bu tamoyillar mashhur asar “Temur tuzuklari”da ham bayon qilingan. **Unda quyidagi g'oyalar muhim o'rin tutadi:** qo'shinlarda boshchilik qiladigan sarkardalarning mas'uliyati, qo'shinlardagi tartib va intizom hamda harbiy xizmatda qat'iy adolat asosiy o'rinni egallagan. Bu tamoyillar armiyaning jang qobiliyatini oshirishga xizmat qilgan.

Amir Temur jangda faqat kuchga emas, balki **psixologik ta'sirga** ham katta ahamiyat bergan. **Uning strategiyasida:** dushmanni qo'rqitish, uning ruhiyatini pasaytirish, o'z qo'shinlarida ishonchni oshirish muhim o'rin tutgan. Bu usullar hozirgi harbiy psixologiyada ham qo'llaniladi.

Amir Temur harbiy merosining zamonaviy ahamiyati va harbiy strategiyasi

bugungi kunda ko'plab tadqiqotlarda o'rganilmoqda. Uning ayrim tamoyillari hozirgi harbiy ta'lim tizimida ham qo'llanilib kelinmoqda. **Masalan:** strategik rejalashtirish, tezkor manyovrni amalga oshirish, razvedka ma'lumotlaridan foydalanish va qo'shinlarni samarali boshqarish. Bu g'oyalar zamonaviy armiyalar uchun ham muhim nazariy asoslar bo'lib hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur jahon harbiy san'ati tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk sarkarda hisoblanadi. Uning jang strategiyasi, qo'shinni boshqarish usullari va harbiy tashkilotchilik tajribasi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Amir Temurning boy harbiy merosini o'rganish nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki yosh avlodni vatanparvarlik, jasorat va mas'uliyat ruhida tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois uning harbiy merosi va davlatchilik tajribasini chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Podpolkovnik
Zavqiddin FAYZIYEV,
Harbiy xavfsizlik va
mudofaa universiteti
Sharqiy harbiy okrug fakulteti
katta o'qituvchisi**

Ehtirom



Har bir xalqning ma'naviy yuksakligi, milliy qadriyatlari va insonparvarlik tamoyillari, avvalo, jamiyatda ayollarga ko'rsatilayotgan hurmat va ehtirom darajasida namoyon bo'ladi. Zero ayol – hayot davomchisi, oila mustahkamligining asosiy tayanchi hamda kelajak avlodni tarbiyalovchi muqaddas zot.

AYOL —

JAMIYATNING MA'NAVIY USTUNI

Darhaqiqat, ayolning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini birgina so'z bilan to'liq ifodalash qiyin. Negaki u bir vaqtning o'zida mehribon ona, sadoqatli umr yo'ldosh, g'amxo'r opa-singil, fidoyi ustoz hamda jamiyatning faol a'zosi sifatida turli mas'uliyatli vazifalarni zimmasiga oladi. Aynan mana shu ko'p qirrali insoniy fazilatlarini, mustahkam irodasi va cheksiz fidoyiligi bilan ayol jamiyat barqarorligi, oilaviy totuvlik hamda taraqqiyotning muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Ona inson tarbiyasining eng muhim va muqaddas maskanidir. Jamiki insonlarning kamol topishida, uning ma'naviy va axloqiy shakllanishida onaning o'rni beqiyosdir. Farzand qalbida mehr-oqibat, ezgulik va insoniylik tuyg'ulari, avvalo ona tarbiyasi orqali shakllanadi. Shu bois xalqimiz azaldan onani ulug'lab, uning maqomini yuksak qadrlab kelgan.

Buyuk mutafakkirlar ham ona tarbiyasining ahamiyatini alohida

ta'kidlab o'tganlari bejiz emas. Jumladan, Alisher Navoiy o'z asarlarida inson kamolotida mehr, tarbiya va ma'naviyat muhim o'rin tutishini qayd etadi. Bu esa onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyati naqadar muhim ekanini ko'rsatadi. Shunday ekan, kelajak avlodning qanday inson bo'lib voyaga yetishi ko'p jihatdan onalarning bergan tarbiyasiga bog'liq. Ma'naviy yetuk, vatanparvar va bilimli yoshlarni tarbiyalashda onalarning hissassi beqiyos.

Zamonaviy jamiyatda ayollarning o'rni. Bugungi kunda ayollarning jamiyat hayotidagi o'rni tobora kengayib bormoqda. Ular nafaqat oila tarbiyasida, balki ilm-fan, ta'lim, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, sanoat va davlat boshqaruvi kabi turli sohalarida faoliyat yuritib, katta yutuqlarga erishmoqda. Mamlakatimizda ham xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, bilim olishlari va kasb egallashlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu

esa ayollarning jamiyatdagi faolligini oshirib, ularning salohiyatini to'liq namoyon etishiga xizmat qilmoqda.

Bugungi o'zbek ayoli nafaqat oila farovonligi uchun, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham faol mehnat qilmoqda. Ular ilmiy tadqiqotlar olib borib, yangi g'oyalar yaratib, turli loyihalarni amalga oshirib, mamlakat rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Ayol – mehr va matonat timsoli. Ayolning eng buyuk xislatlaridan biri bu uning sabr-toqati va matonatidir. Hayotning turli sinovlariga qaramay, ayollar doimo o'zining kuchli irodasi, mehribonligi va fidoyiligi bilan jamiyatda hurmat qozonib kelgan. Ayniqsa, qiyin vaziyatlarda ham oilani birlashtirib, farzandlarini to'g'ri yo'lga boshlash ayolning eng ulug' vazifalaridan biridir. Shu sababli ayollarni e'zozlash, ularning qadr-qimmatini ulug'lash har bir jamiyatning muhim burchidir.

Ayollarga ko'rsatilgan hurmat aslida jamiyatning o'ziga bo'lgan

hurmatidir. Chunki ayol baxtli bo'lgan oilada tinchlik va totuvlik hukm suradi, bunday oilalarda ulg'aygan farzandlar esa kelajakda jamiyatning yetuk va mas'uliyatli a'zolariga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, ayol jamiyatning ma'naviy ustuni, oila baxtining asoschisi va kelajak avlod tarbiyachisidir. Ayollarga hurmat ko'rsatish, ularning qadrini ulug'lash va ularga munosib sharoit yaratish har bir jamiyatning muhim vazifalaridan biri bo'lib qolaveradi.

Zero, ayol qadri baland bo'lgan yurtida mehr-muhabbat, totuvlik va baraka hukm suradi. Bunday jamiyatda ulg'aygan avlod esa yurt ravnaqi va xalq farovonligi yo'lida xizmat qiladigan yetuk insonlar bo'lib yetishadi.

**Fuzayl YUSUPOV,
Harbiy xavfsizlik va
mudofaa universitetining
Harbiy aviatsiya instituti
o'qituvchisi**

Mudofaa vaziri kubogi



VATANPARVAR YOSHLAR – *Yangi O'zbekistonning ishonchli tayanchi*

Qoraqalpog'iston Respublikasida yoshlarning vatanparvarlik ruhini mustahkamlash, ularning harbiy-amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda jismoniy va ma'naviy barkamolligini oshirishga qaratilgan Vatanparvarlar harbiy sport musobaqasining respublika bosqichi o'tkazildi. Mudofaa vazirining kubogi uchun kechgan mazkur musobaqada umumta'lim maktablarining eng faol va iqtidorli o'quvchilari bellashdi.

Musobaqada bellashuvning tuman bosqichida faxrli 1-o'rinni egallagan 17 ta jamoa – umumta'lim maktablarining 10–11-sinf o'quvchilaridan iborat "Vatan tayanchi" otryadi a'zolari ishtirok etdi. Yoshlar 7 ta jamoaviy va 3 ta yakka tartibdagi, jami 10 ta murakkab va mas'uliyatli shart



asosida o'zaro kuch sinashdi. Har bir shart nafaqat jismoniy chiniqish, balki tezkor fikrlash, jamoaviy hamjihatlik va yurtga sadoqat kabi fazilatlarni ham namoyon etishni talab qildi.

Bellashuv dasturiga muvofiq, ishtirokchilar dastlab saf qo'shig'ini ijro etdi. So'ng arqon tortish, turnikda tortilish va press kuch mashqlari bilan o'z jismoniy salohiyatlarini namoyon qildi. Harbiy estafeta va o'q otish sharti esa o'g'il-qizlarning strategiya, tezkor fikrlash va jamoaviy hamjihatligini yuzaga chiqardi. Maydonda shiddatli raqobat va ko'tarinki ruh hukmron bo'ldi. "Temur tuzuklari" bilimdoni sharti esa ishtirokchilarning milliy

tarix va harbiy merosga oid bilimlarini sinovdan o'tkazdi. Yoshlarning amaliy tayyorgarligi birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish, AK-74 qurolini sochish va yig'ish kabi sinovlar orqali baholandi.

Zamonaviy tafakkur va innovatsion yondashuvni namoyish etuvchi robototexnika ko'rgazmasi musobaqaga o'zgacha ruh bag'ishlab, yosh avlodning texnologiyalar olamiga bo'lgan qiziqish va salohiyatini yuksaltirdi, ularda ijodiy fikrlash va muammolarni tezkor hal qilish qobiliyatini yanada rivojlantirdi.

Bellashuvlar davomida har bir jamoa o'zining jipsligi, qat'iyati va shijoati bilan g'alaba sari intildi. Maydonda

hukm surgan sog'lom raqobat va jo'shqin kayfiyat yoshlarning qalbidagi yurtga sadoqat, xalq va Vatan oldidagi mas'uliyat hissini yanada mustahkamladi.

Tadbir yakunida g'olib va sovrindor jamoalar Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'mondoni, Yoshlar ittifoqining Qoraqalpog'iston Respublikasi Kengashi, Yoshlar ishlari agentligi hamda "Vatanparvar" tashkiloti hududiy kengashi tomonidan munosib taqdirlandi.

Yuqori natijani qayd etib, faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritgan jamoaga qo'mondon kubogi topshirildi. Ular bellashuvning Mudofaa vazirligi bosqichida ishtirok etish yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

Mazkur musobaqa yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini mustahkamlash, ularni jismonan chiniqqan, ma'naviy yetuk va yurt taqdiriga daxldor bo'lgan avlod sifatida tarbiyalash yo'lida muhim ahamiyat kasb etdi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

Ochiq eshiklar kuni

UCH AVLOD VAKILLARI *harbiy qismda jam bo'ldi*

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent viloyati Kengashi, Mudofaa vazirligi, Chirchiq harbiy prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari faxriylari, "Vatanparvar" tashkiloti, Yoshlar kelajagimiz jamg'armasi hamkorligida Chirchiq shahridagi harbiy qismda oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlari bilan ochiq eshiklar kuni o'tkazildi.

Tadbirlar davomida rahbar, prokuror va yoshlar uchrashuvlari hamda "Vatanparvar" tashkiloti bilan pnevmatik quroldan o'q otish musobaqalari tashkillashtirildi.

Yoshlar harbiy orkestr jamoasining jangovar musiqiy sadolari ostida kutib olindi. Shundan so'ng harbiy qism saf maydonida harbiy orkestr, faxriy qorovul, qo'ljangi chiqishlari namoyishi bo'lib o'tdi. Shu bilan birga jangovar texnikalar, qurol-aslahalar ko'rgazmasi ham yoshlar va mehmonlarda katta taassurot qoldirdi. Shu kuni tashrif buyurganlar harbiy qism o'quv binosi, kutubxonasi bilan ham yaqindan tanishib, harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlarga guvoh bo'ldi.

Talaba-yoshlar "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan tashkil etilgan pnevmatik quroldan o'q otish bo'yicha ham o'zaro bellashdi. Harbiy qism madaniyat markazida

esa Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari faxriylari hamda Chirchiq harbiy prokuraturasi, Harbiy qism komandiri, "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi Toshkent viloyati rahbari hamkorligida uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Unda so'z olganlar tomonidan yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning g'oyalarini yanada rivojlantirish, shuningdek mamlakatimizning shonli o'tmishi, buyuk ajdodlarimizning boy merosi haqida ma'lumotlar berildi.

Tadbir so'ngida O'zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent viloyati Kengashi tomonidan musobaqa g'oliblari hamda mehmonlarga tashakkurnoma va esdalik sovg'alari taqdim etildi.

**Nizomiddin YULDASHEV,
O'zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent viloyati kengashi bo'lim boshlig'i**

O'q otish sporti

OLTIN MEDAL, YANGILANGAN REKORD

Joriy yilning fevral oyida Hindistonda bo'lib o'tgan Osiyo chempionatida sportchilarimiz Osiyo va jahon rekordini yangilab, oltin medalga sazovor bo'lgan edi. Pnevmatik to'p pponchadan 10 metr masofaga o'q otish bo'yicha kechgan miks (*aralash*) bahslarda Mudofaa vazirligi sportchilari – Qurolli Kuchlar xizmatchilari Muhammad Kamalov va Nigina Saidqulova juftligi 481.3 ball jamg'arib, mazkur yo'nalishdagi Osiyo va jahon rekordini yangilashga erishdi.

Bugun biz har ikki sportchi bilan musobaqa taassurotlari, o'q otish bo'yicha olingan dastlabki ko'nikmalar va kelajak rejalarini haqida suhbatlashdik.

ILK QADAM

Muhammad KAMALOV:

– Maktabda o'qib yurgan paytlarim jismoniy tarbiya o'qituvchimga qishki biatlonga qiziqishim yuqori ekanini, qanday qilib shu yo'nalishda mashg'ulot o'tkazish mumkinligi haqida so'radim. Shunda o'qituvchim shu yo'nalishdagi murabbiyning raqamini berdi va albatta, uning oldiga borishimni tavsiya qildi. Xuddi shunday qildim va o'sha-o'sha 10 yildan ko'proq vaqt mobaynida mana shu sport bilan shug'ullanib kelaman.

Nigina SAIDQULOVA:

– Maktab yillarida shaxmat va karate sport turlari bilan shug'ullanib yurardim. Bir kuni o'qituvchimiz: “Mudofaaga ko'maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotida o'q otish sporti bo'yicha mashg'ulotlar o'tkaziladi. Mashg'ulotlar mutlaqo bepul, borib, o'zingni sinab ko'rmaysanmi?” deya taklif berdi. Bu yo'nalish men uchun juda qiziq tuyuldi. Uydagilar bilan maslahatlashib, ertasi kuni Termiz shahridagi aytilgan manzilga bordim va mashg'ulotlarda ishtirok eta boshladim. Shukur, adashmagan ekanman. O'q otish sporti menga juda yoqib qoldi.

MIKS YOKI YAKKALIK

Muhammad KAMALOV:

– Aralash (*miks*) bahslar yakkalikka nisbatan mas'uliyatli. Yakkalik bahslarida ishtirok etganda faqat o'zim uchun javob beraman. Mag'lubiyat ham, g'oliblik ham o'zimniki. Aralash bahslarda sherigimni ko'proq o'ylayman. Mening xatom sabab mag'lubiyatga uchrashidan qo'rqaman. Qo'rquv, tabiiyki hayajonlanishga olib keladi. Hayajon bo'lgandan keyin diqqat bo'linadi va nishonni mo'ljalga olishda, albatta, o'z ta'sirini o'tkazadi. Shuning uchun miks yo'nalishi mas'uliyatli. Lekin aralash bahslarda tandem bo'lib bahsga kirishayotgan sherigim Nigina Saidqulova o'ta tirishqoqligi, xotirjamligi va oxirigacha kurashish

qobiliyati sabab motivatsiya olaman. Undagi ichki xotirjamlik musobaqa davomida menga yuqadi.

Nigina SAIDQULOVA:

– Agar musobaqaga Muhammad Kamalov bilan birga tushsam, miks yo'nalishi qulayroq. Sababi Muhammad ancha tajribali, o'ziga bo'lgan ishonchi yuqori, sovuqqon va juftlik sifatida musobaqaga kirganimda undan motivatsiya olaman.

FINAL – BOSIM BOSQICHI(MI?)

Muhammad KAMALOV:

– Musobaqaning har bir bosqichidan o'tib borar ekansiz, bosim ham kuchayib boraveradi. 10 yildan ortiq vaqt davomida

o'q otish sporti bilan shug'ullanib kelaman. Bu vaqt mobaynida turli darajadagi musobaqalarda ishtirok etdim. Mag'lub ham, g'olib ham bo'lgan paytlarim bo'lgan. Ammo eng hayajonli daqiqalar finalga chiqqanimda boshlanadi. Sanoqli saralanganlar orasida turibman-u, ortimda 300 dan ortiq finalga chiqolmagan sportchi, menga ishonch bergan yaqinlarim, ota-onam va sharoit yaratib berayotgan Vatanim oldidagi mas'uliyat bir vaqtning o'zida ham qo'rquv, ham motivatsiya beradi.

Nigina SAIDQULOVA:

– Birinchi musobaqam 2015-yili Toshkentda bo'lgan edi va men uchun mag'lubiyat bilan tugagan. O'shanda tushundimki, eng katta raqib o'zim ekanman. Meni mag'lubiyat sari yetaklagan holat o'zimdagi hayajonni bosa olmaganimda bo'lgan. Vaqtlar o'tib, hayajon bilan “kelishib” ishlashga o'rgandim. Chunki uni butkul yo'qotishning imkoni yo'q. Aslida hayajonlanish doim ham xalaqit bermaydi. Uning yaxshi tomonlari ham bor. Shuning uchun final bosqichini doim ham bosim deya olmayman.

SO'NGGI O'Q

Muhammad KAMALOV:

– Xalqaro musobaqalarda ishtirok etayotgan va finalgacha yetib kelgan sportchilarning hech biri mag'lubiyat uchun kelmagan. Bahslar doim muvaffaqiyatli va shiddatli bo'ladi. Raqiblar bilan nishonni mo'ljalga olishda deyarli imkoniyatlarimiz barobar bo'ladi. Ko'pincha so'nggi o'q natijani hal qiladi. Shuning uchun uning qo'rquvi bor.

Yurtimiz tarixida miks yo'nalishida birinchi marotaba oltin medal qo'lga kiritildi. Ushbu tarixiy natijada mening ham hissam borligidan faxrlanaman. O'tgan 2025-yili mudofaa vaziri O'q otish federatsiyasi raisi bo'ldi. Shundan keyin mashg'ulot o'tkaziladigan tirlar jahon standartlariga mos qilib ta'mirlandi. O'ylanmanki, yaratilayotgan sharoitlar yangi imkoniyatlar sari yetaklaydi. Bizdan keyingi yetishib kelayotgan uka va singillarimizning ham o'q otish sportiga qiziqishi ortib bormoqda. Ular ham biz erishayotgan natijalardan motivatsiya olib, bu yo'nalishda yangi marralarni zabt etishiga ishonaman. O'zim ham yurtimizda yaratilayotgan bu kabi sharoitlardan unumli foydalanib, Olimpiada chempioni bo'lish uchun bor imkoniyatimni ishga solaman.

Nigina SAIDQULOVA:

– O'tgan yildan boshlab sportchilarning jismoniy imkoniyati bilan ruhiyatini ham barobar ko'tarish maqsadida safimizga psixolog ham qo'shildi. Bu soha mutaxasssilarining biz bilan ishlashi juda muhim. Chunki ruhiy barqarorlik bo'lsagina, o'q nishonga aniq tegadi. Sportchilarning yutuqlarida yaratilgan sharoitlar, murabbiylarning yondashuvi, psixologlarning xizmati va yaqinlarimizning daldasi juda muhim o'rin tutadi. Shu o'rinda birinchi ustozim Ravshan Samadovga mendagi imkoniyatlarni ko'ra olgani uchun ham katta rahmat aytaman.

SPORTDAN TOPGANLARIM

Muhammad KAMALOV:

– Ko'pchilik mendan “Sport senga nima berdi?” deya so'rashadi. Sport meni ichki xotirjamlikka, hayotda duch kelish mumkin bo'lgan masalalarda mulohaza qilish, bosiqlik, ruhiyatni sokinlikda ushlab turishga o'rgatdi. Qolaversa, oliy ta'lim muassasasiga talabalikka qabul qilindim. Dunyoning ko'pgina davlatlarini ko'rishga muvassar bo'ldim. Shu o'rinda bir narsani aytib o'tay. Chet



Ishonsangiz, musobaqa vaqtida o'zim bilan o'zim gaplashaman. 1 soat-u 15 daqiqa o'q otishga sarflansa, o'shancha vaqt o'zim bilan kurashaman.

Nigina SAIDQULOVA:

– Mashg'ulotlarda ko'p shug'ullanish orqali tajriba ortib boraveradi. Musobaqaga chiqqan paytimda hech kimni eshitmayman va ko'rmayman. Bor diqqat-e'tiborim o'zimni yengish va nishonni aniq mo'ljalga olishga qaratiladi. Shunday ekan, so'nggi o'q men uchun adrenalin.

SHAROIT IMKONIYAT YARATADI

Muhammad KAMALOV:

– Men faoliyatim mobaynida 6 marta Osiyo chempionatida ishtirok etganman.

el safarlarida musobaqa mobaynida ikki, uch hafta qolishimizga to'g'ri keladi. Meni eng ko'p qiynaydigan sog'inch – milliy taomlarimiz. Hech bir davlatning ovqatlari Vatanimnikiga teng kelmaydi. Shuning uchun yurtimni juda tez sog'inaman.

Nigina SAIDQULOVA:

– Erta tongda telekanallar orqali yurtimiz madhiyasi yangraydi. Uning ohangi yuragimizga singib ketgan. Ammo uni chet elda eshitsangiz bormi. O'ttizdan ortiq davlat orasida Vatanim bayrog'i baland ko'tarilib, madhiyaning yangrashi butkul boshqacha tuyg'u beradi. Bunday baxtga muvassar bo'lish, bunday tuyg'uni ta'riflab berishning imkoni yo'q. Mana, sport menga nima berdi.

“Vatanparvar” muxbiri
Sherzod SHARIPOV yozib oldi.

24-mart – Butunjahon silga qarshi kurashish kuni



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi



Sil kasalligi havo-chang orqali yuqib, organizmning barcha a'zolari hamda to'qimalarini shikastlaydigan, ko'pincha o'pkada uchraydigan surunkali yuqumli kasallikdir.

Nemis olimi Robert Kox 1882-yil 24-mart kunida sil kasali qo'zg'atuvchisini kashf etgani sababli har yili ushbu kun Butunjahon silga qarshi kurashish kuni deb e'lon qilingan.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, sil kasalligi butun dunyoda o'lim bilan yakun topadigan kasalliklar o'nligiga kiradi. Dunyo bo'yicha har uchinchi kishi tanasida Micobakterium tuberkulosis bo'lar ekan, lekin kasallikning klinik namoyon bo'lishi qo'zg'atuvchini yuqtirganlarning taxminan 10 foizida kuzatiladi. Silning yuqumli shaklidagi bemor bilan muloqotda bo'lgan sog'lom kishilardan bir yil mobaynida 40-50 kishi kasallikni yuqtirib oladi va ularning 20-40 foizida kasallik rivojlanadi.

Infeksiyaning asosiy manbai bemor odam hisoblanadi. Ba'zida sil bilan kasallangan hayvonlarning mikobakteriyalarni saqlovchi so'lagi tushgan havodan nafas olganda yoki xom sutini ichganda yuqishi mumkin.

Sog'lom inson organizmi odatda sil kasalligining rivojlanishiga qarshi kurashadi, inson organizmining himoya kuchi yetarlicha bo'lsa, o'pkaga tushgan sil bakteriyalari organizm hujayralari tomonidan zararsizlantiriladi va kasallik rivojlanmaydi, lekin to'g'ri ovqatlanmaydigan, kashanda, spirtli ichimliklar va gilyovand moddalar iste'mol qiluvchi odamlarda sil kasalligini yuqtirib olish xavfi yuqoridir. Sil kasalligi bilan og'rikan odamlarning oila a'zolari ham xavf ostida bo'ladilar. Bolalar, keksalar hamda immunitet tanqisligi bilan kechuvchi surunkali kasalliklarga yo'liqqanlar ham ushbu dardga beriluvchan bo'ladi.

Mazkur kasallik balg'amida bakteriyalar ajralib chiqayotgan

turi bilan og'rikan bemor bilan bitta xonada yopiq joyda muloqotda bo'lganda yuqadi. Ayniqsa, kuchli yo'talayotgan va aksirayotgan bemor atrofga sil mikrobini ajratib chiqaradi. Sil bakteriyalari havoda bir necha soatgacha saqlanishi mumkin. Agar yuqumli shakldagi sil bilan kasallangan bemor shamollatilmagan xonada uzoq vaqt o'tkazgan bo'lsa, shu yerdagi havoda aylanib yurgan bakteriyalarning soni shunchalik ko'payib ketadiki, ular boshqa sog'lom kishilarning nafas yo'llariga osonlikcha o'tadi. Silni yuqtirganlarning barchasida ham kasallik alomatlar kelib chiqmaydi, balki "uyqu"dagi sil bakteriyalari o'z vaqti-soatini poylab yotadi. Immunitet pasayganda, ular sil kasalligini keltirib chiqaradi.

Sil kasalligini erta tashxislash qiyin, chunki uning birlamchi bosqichlardagi belgilari yuqori nafas yo'llarining o'tkir kechuvchi yuqumli kasalliklariga o'xshash bo'ladi.

Quyida ko'rsatilgan belgilar odamda sil kasalligi bo'lishi mumkinligiga ishora qiladi: 3 haftadan ko'proq davom etuvchi yo'tal, yo'talganda shilliq yoki yiringli, ba'zida esa qon aralash balg'amning ajralishi, vaqti-vaqti bilan paydo bo'luvchi isitma, kuchli terlash, ko'krak qafasidagi og'riq, umumiy holsizlik, ishtahaning bo'g'ilishi, tana vaznini yo'qotish. Silning bunday belgilariga ko'pincha odamlar unchalik e'tibor qilmaydi va shifokorga murojaat etmaydi yoki mustaqil davolanishga urinadi. Agar bemor kishi sil kasalligining dastlabki bosqichlarida aniqlanib, o'z vaqtida davolash choralari ko'rilsa, uni yengib o'tish shuncha samaraliroq bo'ladi.

Kasallikni to'liq davolash kursidan o'tish juda muhimdir, chunki

SIL KASALLIGI VA UNING SALBIY OQIBATLARI

kasalligining o'rtacha davo kursi 6-8 oyni tashkil qilsa, silga qarshi dori vositalariga chidamli turini davolash 2 yilgacha davom

etadi. Bemor kasallik belgilari paydo bo'lishi bilan oq, darhol shifokorga murojaat qilishi va atrofdagilarga kasallikni yuqtirmaslik choralari ko'rishi lozim.

Sil kasalligining oldini olish uchun nima qilish lozim, degan tabiiy savol tug'iladi.

Inson o'zini sildan himoya qilishi uchun quyidagilarga rioya etishi tavsiya etiladi: doimo ratsional ovqatlanish, jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanish, yashash va ish joyini toza va musaffo havo bilan uzluksiz almashtirib turish va shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish.

Sil bilan kasallangan bemorni erta aniqlash, tezlik bilan maxsus davolash muassasasiga yotqizish, bemor yashagan xonadon yoki yotoqxonani va u yerdagi buyumlarni zararsizlantiruvchi vositalar yordamida dezinfeksiyadan o'tkazish, bemor bilan muloqotda bo'lgan shaxslarni to'liq ro'yxatga olib, ular ustidan tibbiy nazorat o'rnatish, kimyoprofilaktika ishlarini yo'lga qo'yish, targ'ibot ishlarini olib borish, bemorning yaqinlarini sil kasalligidan saqlashda juda muhim. Aholi o'rtasida sil bilan og'rikan bemorlarni erta aniqlashda, ularni flyuorografiya ko'rigidan o'tkazish ham juda katta ahamiyatga ega.

Aholi salomatligini saqlash va silga qarshi kurashish ishlarini tubdan yaxshilash maqsadida O'zbekistonda "Aholini sil kasalligidan himoya qilish to'g'risida"gi qonun kuchga kiritilgan bo'lib, davlatimiz tomonidan va xalqaro tashkilotlar mablag'larini jalb qilgan holda silga qarshi chora-tadbirlar kuchaytirilishi natijasida keyingi yillar davomida epidemiologik vaziyat barqarorlashib, sil kasalligi bilan kasallanish ko'rsatkichi ancha kamaydi.

Shuni unutmaslik lozimki, sog'lom turmush tarzini kechirish, sil va boshqa yuqumli kasalliklar profilaktikasi uchun muhimdir. Sport bilan shug'ullangan inson baquvvat va chidamli bo'ladi. Umrining oxirigacha sihat-salomat bo'lib yurishni istaydigan inson avvalo, sog'lom turmush tarziga rioya qilishi lozim.

**Tibbiy xizmat mayori
O. RASHIDOV,
Termiz sanitariya-epidemiologiya
nazorati bo'limi boshlig'i**



bemor davolanishni boshlagach, rivojlanayotgan bakteriyalar soni odatda kamayadi va shu bilan birga boshqa odamlarga kasallikni yuqtirish xavfi ham pasayadi. Davolanish jarayonida bir necha haftadan so'ng bemor o'zini yaxshi his qila boshlaydi, lekin u davolashni to'xtatmasdan, shifokorning ko'rsatmalariga muvofiq, dorilarni qabul qilishni davom ettirishi lozim, chunki sil mikobakteriyalari o'ta yashovchandir.

Multirezistent sil – silning yanada xavfli shakli bo'lib, unda sil bakteriyalari barqarorlik kasb etadi, ya'ni asosiy silga qarshi dorilar ta'sir qilmay qo'yadi. Ushbu holat bemorning o'z bilganicha, noto'g'ri va palapartish davolanishi oqibatida ro'y beradi. Kasallik o'z vaqtida aniqlansa, hamda to'g'ri davolansa, silning rivojlanishini boshlang'ich davridayoq to'xtatib, o'pka va boshqa a'zoldagi parchlanishning oldini olish mumkin. Silning o'z vaqtida aniqlanishi, muvaffaqiyatli davolanish garovidir. Dori vositalariga sezgir bo'lgan sil

Hamkorlik



BOLGARIYA delegatsiyasi Toshkentda

Bolgariya Respublikasining Transport yuk tashuvchilar palatasi prezidenti Petko Angelov boshchiligidagi "Vatanparvar" tashkiloti Toshkent shahri kengashi tasarrufidagi sportning texnik va amaliy turlari markaziga tashrif buyurdi.

Uchrashuv mobaynida xorijlik mutaxassislar "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasalarida turli toifalarda avtomototransport haydovchilarini tayyorlash jarayoni, mavjud moddiy-texnik baza, o'quv dasturlari va haydovchilik kasbini o'rgatishga mo'ljallangan innovatsion texnologiyalar bilan tanishdilar.

Delegatsiya rahbari "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi rahbariyati bilan suhbat asnosida, Bolgariyada "D" va "CE" toifalaridagi avtotransport haydovchilariga katta ehtiyoj sezilayotganini, Transport yuk tashuvchilar palatasi chet davlatlardan o'rtacha 8 mingta haydovchi jalb etishni rejalashtirayotganini bildirdi. Muzokara davomida joriy yilning oxiriga qadar xorijda ishlash istagida bo'lgan ming nafar fuqaroni haydovchilik kasbiga tayyorlab, bu davlatga yuborish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, bugungi kunda Bolgariya mehnat bozorida avtomobillarga gaz uskunalarini o'rnatish va ta'mirlash ustalari hamda avtochilangarlar zarurligi ma'lum qilindi.

Milliy gvardiya – Vatan posboni

*Yangi yurt bag'rida tuzildi qo'shin,
El uchun sadoqat, muqaddas tayanch.
Oliy maqsadidir, el-yurtga xizmat,
Milliy gvardiya – xalqimga suyanch.*

*Jangga shay saflarda, mardlar sarasi,
Vatan deb yonganlar, alplar sarasi.
Sharafli burchlari erur muqaddas,
Milliy gvardiya – el-yurtga qalqon.*

*Jangovar ruhiyat barqaror, baland,
Zamonga hamnafas, qadamlar jadal.
Qiyofa o'zgarar, qudrat yuksalar.
Tahdid-u xatarga tayyor har o'g'lon.*

*Qadamlar qo'yilar tinch hayot sari,
Jamoat tartibi, burch, najot sari.
Yurt tinchligi erur – kunlik natija,
Har tongda barqaror ona yurt bag'ri.*

*Yurt erki, Qomusi qo'riqda har on,
Mardlar himoyada, xalqning qalqoni.
Sadoqat, jasorat hamda sof vijdon –
Milliy gvardiya Vatan posboni.*



**Adliya podpolkovnigi Mahmud OCHILOV,
Milliy gvardiya bo'lim boshlig'i**

Muloqot

RAHBARLAR yoshlar bilan uchrashdi

Joriy yilning 24-fevral kuni Prezidentimizning yoshlar bilan bo'lib o'tgan ochiq muloqotida yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish borasida bir qator taklif-tashabbuslar ilgari surilgan edi.

rejalashtirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar berdi.

Muloqot davomida yoshlarning fikr va takliflari tinglandi. Tadbir so'ngida "Vatanparvar" tashkiloti a'zolariga yangi 20 nafar nomzod qabul qilinib, faol o'quvchi-yoshlarning 8 nafariga kitoblar jamlanmasi va tashakkurnomalar topshirildi.

Shuningdek, Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida tashkilotning viloyat kengashi raisi Bekzod Rahimov ishtirokida "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi ham tashkil etildi.



Xususan, mamlakatimizda har haftaning payshanba kuni vazirlik, idora va hokimliklarda "Yoshlar kuni" bo'lishi belgilandi. Mazkur vazifa ijrosini ta'minlash maqsadida, mamlakatimiz bo'yab O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tizimidagi bir qator rahbarlar yoshlar bilan muloqot qildi.

Namangan viloyatining Uchqo'rg'on tumanida "Vatanparvar" tashkiloti viloyat kengashi raisi Ahmadjon Alaxodjayev, tuman hokimi Dilshodbek Mirxanov va 200 ga yaqin yosh o'rtasida uchrashuv o'tkazildi.

Uchrashuvda A. Alaxodjayev "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan aholi, ayniqsa yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar berdi.

Tuman hokimi D. Mirxanov tumanda o'qish, ishlash yoki tadbirkorlikni tanlagan yoshlar uchun joriy etilgan qulayliklar va imtiyozlar hamda kelgusida bu borada

Tadbirni institut rektori, professor Shavkat Hasanov ochib berib, yoshlar ongiga Vatanga muhabbat tuyg'usini singdirish, ularni jismonan va ma'nan barkamol etib voyaga yetkazish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri ekani, ayni tadbir shu maqsadni ko'zlab tashkil etilayotganini ta'kidladi.

So'ngra B. Rahimov so'zga chiqib, "Vatanparvar" tashkilotining yoshlar hayotidagi ahamiyati, jumladan ular tashkilotda sport bilan shug'ullanishlari va kasb-hunar egallashlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar hamda imtiyozlar to'g'risida to'liq ma'lumotlar berdi.

Muloqot davomida oliy ta'lim muassasasida "Vatanparvar" tashkilotining boshlang'ich tashkilotini tuzish taklifi ilgari surildi.

Tadbir yakunida talabalarga tashkilot faoliyatini aks ettiruvchi videolavhalar namoyish etilib, maxsus infografikalar tarqatildi. Tashkilotning pnevmatik quroldan o'q otish seksiyasi faoliyati bilan yaqindan tanishgan ko'plab yoshlar ushbu seksiyada shug'ullanish istagini bildirdi.

Bu kabi "Rahbar va yoshlar" uchrashuvlari "Vatanparvar" tashkilotining Andijon, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari kengashlari tomonidan ham tashkil etildi.



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

O'zbekiston – 2030

KITOBXONLIK TANLOVI

Yurtimizda mutolaa madaniyatini yuksaltirish va kitobxonlikni rivojlantirish ustuvor masala hisoblanadi. “Davlat tili nufuzini oshirish, o'zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlikni hamda aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni rivojlantirish” masalalari “O'zbekiston – 2030” strategiyasida ham alohida maqsad etib belgilangan.

Yaqinda, Prezidentimiz “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o'rtasida kitob o'qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi yana bir qarorni imzoladi. 24-fevral kuni mamlakatimiz yoshlari bilan bo'lib o'tgan ochiq muloqotda ham davlatimiz rahbari yoshlar o'rtasida kitobxonlikni ommalashtirish masalasiga alohida urg'u berib o'tdilar.

Bir so'z bilan aytganda, bu borada respublikamiz miqyosida keng qamrovli ishlar olib borilib, mas'ul idoralar va mutasaddi tashkilotlar zimmasiga ulkan vazifalar yuklatilgan.

Mazkur umummilliy harakat doirasida O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan ham qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda Bektemir tumanidagi umumta'lim maktablarining 6–11-sinf o'quvchilari o'rtasida **“Prokuror sovrini”** uchun **“Kitobxonlik”** tanlovi o'tkazildi.

Dastavval, tanlovning maktab bosqichi o'tkazilib, o'quvchilardan muqaddam ularga o'qish uchun berilgan kitoblar doirasida davlat tilida diktantlar olindi. Tanlovning tuman bosqichi **“Yoshlar kuni”**da O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida bo'lib o'tdi. Unda keyingi bosqichga chiqqan 30 nafar o'quvchi o'qish uchun berilgan kitoblar doirasida test sinovida bellashdi. Ball ko'rsatkichlari teng bo'lib qolgan qatnashchilar orasidan tezkor og'zaki savol-javoblar orqali g'oliblar aniqlab olindi.

Natijalarga ko'ra, **3-o'rinni:** 6-7-sinf o'quvchilari orasida 358-maktabning 7-b sinf o'quvchisi Gulsevar Xolqo'ziyeva; 8-9-sinf o'quvchilari orasida 289-maktabning 9-a sinf o'quvchisi Jasmina Begimqulova; 10-11-sinf o'quvchilari orasida 290-maktabning 11-a sinf o'quvchisi Iroda Tohirova egalladi.

2-o'ringa: 6-7-sinf o'quvchilari orasida 293-maktabning 6-b sinf o'quvchisi Saidaziz Sadullayev; 8-9-sinf o'quvchilari orasida 345-maktabning 8-a sinf o'quvchisi Dilnoza Shokirova; 10-11-sinf o'quvchilari orasida 346-maktabning 10-a sinf o'quvchisi Omina Haydarova loyiq topildi.

Mutlaq 1-o'rinni: 6-7-sinf o'quvchilari orasida 346-maktabning 7-a sinf o'quvchisi Asilabonu Rajabova; 8-9-sinf o'quvchilari orasida 290-maktabning 8-v sinf o'quvchisi Mumtozbeqim Jumabekova; 10-11-sinf o'quvchilari orasida 293-maktabning 11-v sinf o'quvchisi Zilolaxon Po'latova qo'lga kiritdi. Tantanali taqdirlash qismida g'oliblar, sovrindorlar va barcha qatnashchilar munosib rag'batlantirildi.

Jarayonda “Prokuror va yoshlar” uchrashuvi tashkil etildi. Shuningdek, “Harbiy prokuraturada bir kun” shiori ostida o'quvchilar muzey, ma'naviyat burchagi va axborot-resurs markazi bilan yaqindan tanishtirildi.

Adliya podpolkovnigi Botir SOBIROV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi

Jarayon

AMALIY TADBIRLAR

Yurtimiz bo'ylab “Yurt obodligi, avvalo, mahalladan boshlanadi!” shiori ostida umumxalq xayriya hashari bo'lib o'tdi.

Unda Toshkent harbiy prokuraturasi xodimlari va ularning oila a'zolari faol ishtirok etdi. Jarayonda tevarak-atrof, ko'cha va mahallalarda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari hamjihatlikda amalga oshirildi.

Bundan tashqari, Toshkent harbiy prokuraturasi tomonidan Milliy gvardiya va favqulodda vaziyatlar boshqarmalari bilan hamkorlikda Bektemir tumani Iqbol mahallasi yoshlari uchun ular tahsil olib kelayotgan 358-umumta'lim maktabida vatanparvarlik tadbiri tashkil etildi.

Tadbir davomida harbiy xizmatchilarning ko'rgazmali chiqishlari namoyish etildi, harbiy aslahalar, xizmat mototsikllari va otlari namoyish etilib, ularning tavsifi tushuntirildi.

Shu kabi vatanparvarlik tadbiri Mudofaa vazirligi harbiy qism va muassasalari bilan hamkorlikda Chashma mahallasida aholi ishtirokida ham o'tkazildi.

Adliya podpolkovnigi Alisher QURBONOV,
Toshkent harbiy prokurorining yordamchisi

Kelajagimiz bunyodkorlari

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Mudofaa vazirligi bilan hamkorlikda “Vatan tayanchi” bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati safiga yangi a'zolari qabul qilish tantanali marosimi va vatanparvarlik sayli o'tkazildi.

VATANPARVARLIK E'TIROFI

Poytaxtimizning Bektemir tumanidagi 358-maktabda o'tkazilgan tadbirda davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, harbiy xizmatchilar, o'qituvchilar, o'quvchi-yoshlar va ota-onalar ishtirok etdi.

Ochilish qismida Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori O. Xolboyev tomonidan Prezidentimizning yoshlarga bo'lgan alohida e'tibori va g'amxo'rligi, yaratib berilgan keng imkoniyat, imtiyoz va afzalliklar, shuningdek davlatimiz rahbarining yoshlar bilan o'tkazgan ochiq muloqoti mohiyati va ahamiyati e'tirof etildi.

So'ngra tumandagi 10 ta maktabning har biridan 20 nafardan jami 200 nafar o'quvchiga

“Vatan tayanchi” ko'krak belgisi va maxsus guvohnomalar tantanali ravishda topshirildi.

Jarayon vatanparvarlik tadbiriga ulanib ketdi. Vatan haqida harbiy orkestr tomonidan jonli ijro etilgan kuy-qo'shiqlar, faxriy qorovul va maxsus bo'linmaning ko'rgazmali chiqishlari qatnashchilar qalbidagi vatanparvarlik hissini jo'shqinlantirdi. Harbiy qurol-aslahalar ko'rgazmasi ham barchada katta taassurot qoldirdi.

Adliya polkovnigi Oybek YULBARSOV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi bo'lim boshlig'i

Ijtimoiy himoya

NAVBATDAGI TIBBIY KO'RIK

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Mudofaa vazirligining Markaziy harbiy klinik gospitali bilan hamkorlikda poytaxtimizning Bektemir tumanida aholi uchun navbatdagi bepul chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik tashkil etildi.

Bu gal Zilola mahallasida o'tgan tibbiy ko'rikka tashrif buyurgan 100 nafarga yaqin nuroniy, xotin-qiz, yosh va bolalar malakali mutaxassislar tomonidan maxsus tibbiy tekshiruvlardan o'tdi va zarur tibbiy tavsiyalar oldi.

Onkologik kasalliklar alomati aniqlangan fuqarolarga Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Toshkent shahri filialiga yo'llanmalar berildi.

Adliya kapitani Ulug'bek XOLMAMATOV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining yordamchisi

Ogohlik – davr talabi

KIBERXAVFSIZLIK – BUGUNNING MUHIM TALABI



Bugungi kunda jamiyat hayoti jadal sur'atlar bilan rivojlanib, axborot texnologiyalari barcha sohalarga chuqur kirib bormoqda. Zamonaviy texnika va innovatsion yechimlar insonlar turmushini yengillashtirib, ko'plab imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Biroq raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi bilan bir qator xavf-xatarlar, ayniqsa kiberhujumlar va axborot xavfsizligiga doir tahdidlar ham ortib borayotgani sir emas. Shu bois kiberxavfsizlikni ta'minlash, shaxsiy ma'lumotlar va xizmatga doir axborotlarni muhofaza qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

Ana shu maqsadda Toshkent viloyatining Olmaliq shahrida joylashgan harbiy qism shaxsiy tarkibi uchun “Metallurg” madaniyat saroyida o'tkazilgan davra suhbatlari kiberxavfsizlik va axborot xavfsizligini ta'minlash, shuningdek harbiy xizmatchilarning kiberxavfsizlik bo'yicha bilim va ko'nikmalarini yanada oshirishga bag'ishlandi.


Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Kiberxavfsizlik markazining mas'ul xodimlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari ishtirok etdi. Ular axborot xavfsizligini ta'minlash, internet tarmog'ida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli tahdidlardan himoyalash usullari, shaxsiy ma'lumotlarni asrash, shuningdek ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatiga doir muhim ma'lumotlar bilan o'rtoqlashdilar.

Davra suhbatlari davomida harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolari mutaxassislarga kiberxavfsizlikka oid dolzarb savollar bilan murojaat qilib, atroflarga javob oldi. Ayniqsa, internet orqali amalga oshirilayotgan fribgarlik holatlari, shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish, mobil qurollar va ijtimoiy tarmoqlardan xavfsiz foydalanish masalalariga alohida to'xtalib o'tildi.

Yakunda ishtirokchilarga mavzuga doir maxsus taqdimot hamda axborot xavfsizligiga bag'ishlangan videolavha namoyish etildi.

TOQQQ matbuot xizmati

QO‘LLAB-QUVVATLANMOQDA



Akbar ALLAMURODOV



Ayyomingiz muborak bo'lsin!

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Xorazm viloyati kengashi jamoasi barcha yurtdoshlarimizni, mamlakatimiz tinchligi uchun sabot bilan xizmat qilayotgan yurt posbonlarini, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida faoliyat olib borayotgan "Vatanparvar" tashkiloti tizimidagi hamkasblarini hamda ularning oila a'zolarini muborak Ramazon hayiti hamda Navro'zi olam bilan muborakbod etadi.

Muhtaram yurtdoshlar! Ushbu qo'shaloq ayyom xonadoningizga fayz-u baraka olib kelsin!

Bayramingiz qutlug' bo'lsin!

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Sirdaryo viloyati kengashi jamoasi siz, aziz yurtdoshlarimizni, shuningdek mamlakatimiz mudofaa qudratini yanada oshirish, uning tinchligi, osoyishtaligi va chegaralarimiz daxlsizligini ta'minlash yo'lida fidokorona xizmat qilayotgan barcha harbiylarni hamda "Vatanparvar" tashkiloti tizimida mehnat qilayotgan hamkasblar va ularning oila a'zolarini, mehnat faxriylarini muborak Ramazon hayiti hamda Navro'zi olam bilan tabriklaydi.

Ushbu bayramlar barchangizga bahoriy xush kayfiyat, baxt va omad olib kelsin!

Shukuhli damlar muborak!

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Toshkent viloyati kengashi Yangiyo'l shahri O'STM NTM jamoasi yasharish va yangilanish fasli bahorning tarovatli va shukuhli damlarida muborak Ramazon hayiti va Navro'z bayrami bilan Vatanimiz osoyishtaligi yo'lida tun-u kun hushyor turib, sharaffli va mas'uliyatli xizmat burchini mardonavor ado etayotgan harbiy xizmatchilarni, ularning oila a'zolari va yaqinlarini, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o'z hissasini qo'shayotgan "Vatanparvar" tashkiloti xodimlari hamda yurtimiz ahlini samimiy tabriklaydi.

Barchangizga tinchlik-omonlik, baxt-saodat, xonadoningizga fayz-u baraka tilaymiz!

Qo'shaloq shodiyona

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Surxondaryo viloyati kengashi jamoasi jannatmakon yurtimiz tabiati uyg'ona boshlagan bugungi shukuhli damlarda O'zbekiston xalqini, mamlakatimiz Qurolli Kuchlari saflarida xizmat qilayotgan barcha harbiylarni, mehnat faxriylarini hamda "Vatanparvar" tashkiloti tizimida faoliyat ko'rsatayotgan hamkasblarini va ularning oila a'zolarini muborak Ramazon hayiti hamda Navro'zi olam bilan samimiy tabriklaydi. Vatan ravnaqi, xalqimiz farovonligi yo'lidagi samarali ishlaringizda ulkan zafarlar yor bo'lsin!

Mamlakatimiz osmoni hamisha musaffo, osoyishtaligimiz barqaror, bunyodkor xalqimiz sog' va omon bo'lsin!

Ushbu qo'shaloq shodiyona barchangizga qutlug' bo'lsin, aziz hamyurtlar!

Yurt obodligi

"YASHIL MAKON"

- UMUMMILLIY AN'ANA



Joriy yilning 13-14-mart kunlari respublikamizning barcha hududlarida "Yurt obodligi, avvalo, mahalladan boshlanadi!" shiori ostida umumxalq xayriya hashari o'tkazildi va uning doirasida "Yashil makon" umummilliy loyihasi dasturiga muvofiq, ko'chat ekish an'anasi davom ettirildi.

O'tgan davr mobaynida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida Mudofaa vazirligi tizimida ham keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotgani e'tiborga molik. Mamlakatimizning turli hududlarida harbiy xizmatchilar tomonidan ayni kungacha millionlab manzarali va mevali daraxt ko'chatlari ekilib, joylarda ko'zni quvontiradigan bog'lar bo'y cho'zmoqda.

Toshkent viloyati Parkent tumanidagi Qizil tog' (*Krasnogorsk*) aholi yashash punkti tog' yon-bag'rida 500 gektarlik bog' maydoni shular jumlasidandir. O'zbekiston Respublikasi o'rmon xo'jaligi agentligi tomonidan 50 yil muddatga ijaraga ajratilgan bu hududda 2020-yildan buyon 500 mingdan ortiq har xil daraxt ko'chati ekilmoqda.

Joriy yilning bahorgi mavsumida Mudofaa vazirligi markaziy apparati shaxsiy tarkibi an'anani davom ettirgan holda, "Yashil makon" umummilliy loyihasiga o'z hissalarini qo'shdi. E'tiborli jihati shundaki, bu yerda 2024-yildan buyon terak va tol daraxtlarini qalamcha orqali ko'paytirish ishlari ham boshlab yuborilgandi. Hozirda o'sha terak va tol qalamchalaridan ko'karib chiqqan daraxtlar 1,5-2 metr bo'y cho'zib

qolgan. Loyiha boshida ekilgan mevali daraxtlar esa hosilga kirib, ko'zni quvontiradigan so'lim maskanga aylangan.

Ma'lumki, joylarda ko'chat ekish bahor va kuz mavsumlarida amalga oshirilmoqda. Aynan Qizil tog' aholi yashash punktidagi bog'larga ekilgan ko'chatlarga meliorativ ishlov berish, parvarishlash, tomchilab sug'orish jarayonlari ham shu paytga qadar harbiy xizmatchilar tomonidan bajarilayotgan edi. Endilikda Mudofaa vazirligi tomonidan mahalliy aholi uchun mana shu yerda bog'dorchilik bilan shug'ullanishga imkoniyat yaratib berilyapti. Qizil tog' hududidagi bog'larga mas'ul podpolkovnik

Anvar Hamidovning ta'kidlashicha, daraxtlarni parvarishlash, atrof-muhitni ko'kalamzorlashtirishda o'tgan yildan boshlab ana shunday hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Qisqa qilib aytganda, Qizil tog'dagi bog'-u rog'lar kelgusida nafaqat Toshkent viloyati, balki poytaxtimiz ekologiyasini yaxshilashga o'z hissasini qo'shadi. Bundan tashqari, mamlakatimiz aholisi va harbiy xizmatchilar oilalari bilan ushbu so'lim maskanda maroqli hordiq chiqarish imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

Asror RO'ZIBOYEV,
"Vatanparvar"



MUASSIS
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR



Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Ulug'bek Fattaxov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi:

kapitan Bobur Elmurodov

Sahifalovchi:

Tohirjon Turg'unboyev

Musahhih:

Sayyora Meliqo'ziyeva

Buyurtma: V-6095

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 34 088 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan
tahririyati bilan bog'lanish
uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

www.mudofaa.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz

[mudofaavazirligi](https://www.facebook.com/mudofaavazirligi)

[mudofaavazirligi](https://www.instagram.com/mudofaavazirligi)

www.youtube.com/c/UzArmiya